7. Дедажанов Б.Н., & Эргашева Ф.И. (2021). РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ. Экономика и социум, (1-1 (80)), 543-549.
8. Эргашева Фотимахон Ибрагимовна, & Охунжонова Мадина Исоқжоновна. (2024). КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ. Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 196–204. <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/5322/10475>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11068406>.
9. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. "FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).
10. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. "SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
11. <https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-obsluzhivaniya-naseleniya-na-predpriyatiyakh-sfery-servisa-v-usloviyakh-konkur>
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. *Stat.uz*.



2-TOM, 7-SON

ДАВЛАТ БОЖИ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ УНДИРИШ ТАРТИБИ

Абдулхаева Шахноза Мухаммадиевна

ДТПИ ўқитувчиси

ТДИУ докторанти,

АННОТАЦИЯ: Давлат божи давлат бюджети даромадларини шакллантиришда салмоқли ўрин эгаллайди. Муаллифнинг ушбу илмий тадқиқотида давлат божи ундириш тартиби, давлат божини тўлашда қандай чегирмалар белгиланиши, давлат божи тушунчаси ва уни тартибга солувчи қонун ҳужжатлари, давлат божи тўловчилари, давлат божини ҳисоблаш тартиби ёритилган бўлиб давлат божини ҳисоблашда фойдаланиш мумкин.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Давлат божи, солиқ, солиқ тўловчилар, объект, солиқ стакаси, солиқ карзи, давлат бюджети, товар, маҳсулот, импорт, экспорт, гувоҳномалар, сертификат, лицензия.

Давлат божи юридик аҳамиятга молик ҳаракатларни амалга оширганлик ва (ёки) бундай ҳаракатлар учун ваколатли муассасалар ва (ёки) мансабдор шахслар томонидан ҳужжатлар берганлик учун ундириладиган мажбурий тўловдир.

Давлат божи-давлатнинг махсус ваколатли идоралари (суд, ички ишлар бўлимлари, давлат хизматлари марказлари, нотариал ҳамда суғурта идоралари ва б.) томонидан фуқаролар, корхоналар, ташкилот ва муассасалар манфаатлари йўлида хизмат кўрсатганлик ҳамда юридик аҳамиятга молик ҳужжатлар (паспорт, турли гувоҳномалар, сертификат, лицензия ва бошқалар) берганлик учун ундирадиган пул йиғимларидир. Ўзбекистонда давлат божи Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги ЎРҚ-600-сонли Қонунига асосан белгиланади. Давлат божи маълум бир кўрсатилган хизмат ҳамда юридик аҳамиятга молик ҳужжатлар берганлик учун ундириладиган йиғим ҳисобланади ҳамда жамиятда юзага келаётган эҳтиёждан келиб чиқиб, уни ундириш тартиби ва миқдори ўзгариб боради ва бу қонунчиликка тегишли ўзгартириш (ёки қўшимча) киритиш орқали амалга оширилади.

Давлат божи турлари жумласига қуйидагилар ҳам киради:

Ўзбекистон Республикаси консуллик муассасалари томонидан консуллик ҳаракатларини амалга оширганлик учун тўланадиган консуллик йиғими;



2-TOM, 7-SON

ихтироларга, фойдали моделларга, саноат намуналарига, селекция ютуқларига, товар белгиларига, хизмат кўрсатиш белгиларига, географик кўрсаткичларга, товар келиб чиққан жой номларига, интеграл микросхемалар топологияларига ҳуқуқий муҳофаза бериш билан боғлиқ юридик аҳамиятга молик ҳаракатларни амалга оширганлик учун тўланадиган патент божи¹.

Ваколатли муассасаларга ва (ёки) мансабдор шахсларга мурожаат қилаётган ва ўзига нисбатан юридик аҳамиятга молик ҳаракат ва (ёки) ҳужжатлар бериш амалга ошириладиган юридик ва жисмоний шахслар давлат божини тўловчилардир.

Давлат божи қуйидагилардан ундирилади:

1) фуқаролик ишлари бўйича судларга бериладиган даъво аризаларидан, давлат бошқаруви органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ва улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан берилган аризалардан (шикоятлардан), алоҳида тартибда юритиладиган ишларга доир аризалардан, фуқаролик ишлари бўйича судларнинг ҳал қилув қарорлари, иш юритишни тугатиш тўғрисидаги, даъвони кўрмасдан қолдириш тўғрисидаги, суд жарималарини солиш тўғрисидаги ажримлар устидан бериладиган апелляция, кассация шикоятларидан ва назорат тартибидаги шикоятлардан, ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорлари юзасидан низолашиш ҳақидаги аризалардан, ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорларини мажбурий ижро этиш учун ижро варақаси бериш тўғрисидаги аризалардан, ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорлари юзасидан низолашиш ҳақидаги, ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорларини мажбурий ижро этиш учун ижро варақаси бериш тўғрисидаги ишлар юзасидан фуқаролик ишлари бўйича суд ажримлари устидан бериладиган апелляция, кассация шикоятларидан ва назорат тартибидаги шикоятлардан, чет давлат судининг ҳамда чет давлат ҳакамлик судининг (арбитражининг) ҳал қилув қарорини тан олиш ва ижрога қаратиш ҳақидаги аризалардан, чет давлат судининг ҳамда чет давлат ҳакамлик судининг (арбитражининг) ҳал қилув қарорини тан олиш ва ижрога қаратиш тўғрисидаги ишлар юзасидан фуқаролик ишлари бўйича суд ажримлари устидан бериладиган апелляция, кассация шикоятларидан ва назорат тартибидаги шикоятлардан, шунингдек фуқаролик ишлари бўйича судлар томонидан ҳужжатларнинг дубликатларини ва кўчирма нусхаларини берганлик учун².

¹ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 06.01.2020 йилдаги ЎРҚ-600-сон

² Ўша ерда



2-TOM, 7-SON

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 06.02.2023 йилда имзоланган “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартишлар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ–816-сонли Қонуни билан айрим қонун ҳужжатлари, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги ЎРҚ-600-сонли Қонунига ҳам ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди. Жумладан, “Давлат божи тўғрисида”ги қонунга киритилган қўшимчага мувофиқ, ҳайдовчилар тайёрлаш ҳамда қайта тайёрлаш бўйича лицензия учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 баравари миқдорида давлат божи ундирилади. Давлат божини ундириш тартиби Ўзбекистон Республикасининг “Нотариат тўғрисида”ги қонуни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 3 ноябрда қабул қилинган “Давлат божи ставкалари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ амалга оширилади. Мазкур қарорда яқин қариндошлар ўртасида мол-мулк ва автотранспорт воситалари билан боғлиқ нотариал ҳаракатларни амалга оширганлик учун давлат божини ундиришда имтиёзлар берилиши назарда тутилган. Унга кўра, яқин қариндошлар ўртасида олди-сотди, алмаштириш ва ҳадя қилиш шартномалари расмийлаштирилаётганда белгиланган ставканинг 5 фоизи миқдорида бож ундирилади.

Солиқ кодекси 330-моддасининг 25-бандига кўра, юридик ва жисмоний шахслар суд ижрочисининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан берган шикоятлари бўйича давлат божини тўлашдан озод қилинган. Тушунтирилишича, бундай талаб қаноатлантирилганда давлат божи жавобгардан ундирилади, талабни қаноатлантириш рад этилган ҳолда, эса давлат божи аризадан ундирилмайди.

Ҳужжатда айтилишича, хўжалик судига юридик шахслар ва яқин тартибдаги тадбиркорларнинг манфаатида прокурор, давлат органи томонидан берилган даъво қаноатлантириш рад этилганда (иш юритиш тугатилганда, даъво кўрмасдан қолдирилганда), манфаатлари ҳимоя қилиниб даъво берилган шахсдан давлат божи ундирилмайди. Келишув битими тасдиқланиши муносабати билан иш юритиш тугатилиши бундан мустасно, бунда давлат божи даъво аризасида кўрсатилган талаблардан келиб чиқиб ҳисобланади. Агар даъво берилган шахснинг ўзи, яъни даъвогар томонидан ХПКнинг 40-моддаси тартибида даъвонинг предмети ўзгартирилганда ёхуд даъво талабларининг миқдори кўпайтирилганда, даъвонинг ушбу ўзгартирилган (кўпайтирилган) қисми бўйича қўлланилмайди, Солиқ кодексининг 330-моддасига асосан давлат божи тўлашдан озод этилган ҳолатлар бундан мустасно.

1-жаввал. Давлат божи ставкалари³

³ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.01.2024 йилдаги ЎРҚ-897-сон



2-TOM, 7-SON

«

б) маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг, республика ижро этувчи ҳокимият органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан берилган аризалар (шикоятлар) бўйича	
фуқаролардан	— БҲМнинг 70 фоизи
юримдик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорлардан	— БҲМнинг 10 баравари

Президент томонидан 16.01.2024 йилдаги “Давлат божи тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига маъмурий судларга мурожаат қилишда фуқаролар учун янада қулай шарт-шароитлар яратишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ-897-сон Қонун имзоланди.

Фуқаролар давлат органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг, улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан маъмурий судларга мурожаат қилганда давлат божи фуқаролардан олдиндан ундирилмасдан, ушбу бож тўлови ишни кўриб чиқиш натижаларига кўра айбдор тарафдан ундирилади.

Ҳулоса сифатида қайд этиш лозимки, божларни давлат бюджетига ундирилишини инобатга олиб, ҳар бир ваколатли идора уни белгилаш, ундириш, ундан озод қилиш ва қайтариш тартибига қатъий риоя этиши муҳимдир. Давлат божи маълум бир кўрсатилган хизмат ҳамда юримдик аҳамиятга молик ҳужжатлар берганлик учун ундириладиган йиғим ҳисобланади ҳамда жамиятда юзага келаётган эҳтиёждан келиб чиқиб, уни ундириш тартиби ва миқдори ўзгариб боради ва бу қонунчиликка тегишли ўзгартириш (ёки қўшимча) киритиш орқали амалга оширилади.



2-TOM, 7-SON

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида 28.12.2023 йилдаги ЎРҚ-891-сон Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрири)
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, «Давлат божи тўғрисида»ги ўзбекистон республикаси қонунига маъмурий судларга мурожаат қилишда фуқаролар учун янада қулай шарт-шароитлар яратишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида 16.01.2024 йилдаги ЎРҚ-897-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги олий мажлис Мурожаатномаси
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, ДАВЛАТ БОЖИ ТЎҒРИСИДА 06.01.2020 йилдаги ЎРҚ-600-сон
5. А.Ваҳобов, А.Жўраев. Солиқлар ва солиққа тортиш Дарслик /Ҳаммуал.: – Т.: “Шарқ” нашриёти – 2009 у. -400 бет.
6. <https://lex.uz/acts/698065>
7. <https://kun.uz/news/list?f=tag&name=%D0%B4%D0%B0%D0%B2%D0%B%D0%B0%D1%82+%D0%B1%D0%BE%D0%B6%D0%B8>
8. <https://my.gov.uz/uz/site/faq/80>



2-TOM, 7-SON

MUDDATIDAN AVVAL BERILGAN DARS...

Murotboyeva Maftunabonu

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola hayot pillapoyasida ba'zan kichik e'tiborga arzimagan ko'rinsada xulosa qilishga arziydigan voqelik xususida so'zlaydi. Har bir voqea hodisadan o'zimiz uchun kerakli ibratli jihatlarini olishimiz zarurligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: saboq, xulosa, odob-axloq, erta dars berish.

Hech esimdan chiqmaydi. Aslida kimningdir kamchiligiga noto'g'ri nigohla qarash men uchun bugun haddan tashqari pastkashlikdek ko'rinadi u qandayin kamchilik bo'lmasin. Ma'lum bo'lgani esa shuki, bu dunyoda yomon insonlar yo'q, shunchaki yanglishganlar, yanglihayotganlar va yanglishmoqchilar talaygina. Shu sababdan bo'lsa kerak qaysiki insonda kamchilik ilg'asam yolg'iz o'yim Ollohga shukur aytish bo'ladi...

Aniq yoshim esimda yo'q, kichik qizaloq edim. Uyimizga kelishi kutilayotgan jajji mehmonni intizorlik bilan kutardim. Negaki bu "tashrif" ota-onamni juda quvontirishi avvaldan ma'lum bo'lgandi. Xatto meni ham o'zlarining "shirin ertak"lariga butunlay ishontirib ulgurishgani yodimda. Vaqt o'tib o'sha kunlar ham keldi. Men hozir shiriiiin chaqaloqni ko'raman deya orziqardim. Bilasizmi, keyin "nima bo'ldi?", agar shu savolni o'sha onda berganingizdaaa, bolacha aqlim bilan aniq "dard bo'ldi, balo bo'ldi!" Deb jerkib berar edim sizni. Chunki men ukamni ha, ukamni ko'rgandim ilk bor. U shundayin xunik ediki, asti qo'yaverasiz. Xattoki yuzlarida ota-onam ta'riflagan "shirinlik" qayoqda deysiz, juda ham hunuk bir manzaraning guvohi bo'lardim g'alati toshmalar bilan uyg'unlikda. O'shanda ota-onamga juda ko'p harhasha qilganim hanuz yodimda. Biroq bugun o'sha ishimdan shunchalar uyalamanki, asti so'ramang...

Aqlimmi tanibmanki, men bilan sodir bo'lgan har qanday voqeaning u kattami yoxud kichik ahamiyati yo'q hikmatini anglashga urinaman va u qanchalik to'g'ri yoki xato bilmasamda o'zimga xulosalar yasab olaman. Yuqoridagi hodisa esa hayot menga men o'ylaganimdanda erta dars berishni boshlaganini bot-bot eslatadi.



2-TOM, 7-SON

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamovna A. B. et al. Distributed processing models and algorithms of sensor data //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 97-100.
2. Madirimovna M. S. et al. computer networks and their basic concepts //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 101-104.
3. Muminova U. Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari //web of scientist: international scientist research journal issn. – C. 2776-0979.
4. Abduxamidov S. two-step implicit pismar-rickford scheme for solving the laplace equation //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 7. – C. 29-30.
5. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 336-340.
6. Sardor A., Nafosat A. Ta'lim Jarayonida O'Quvchilarda Tayanch Kompetensiyalarni Rivojlantirish Yo 'Llari //Journal Of Innovations In Scientific And Educational RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 265-267.
7. Abduxamidov S., Abduxamidova N. Mental Arithmetic: The Art Of Skill //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 128-130.



2-TOM, 7-SON

Inson salomatligi uchun vitaminlarga boy meva-sabzavotlarni yetishtirish

Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

1b-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Insonlarni sog'ligini saqlash, ularni kerakli vitamin va oqsilga boy meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash har bir davlatning qishloq xo'jaligi sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Uning yechimi mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligiga erishish bilan bir qatorda aholi turmush sifatini yaxshilash imkonini ham beradi. Maqolada aholini vitaminlarga boy meva-sabzavotlar bilan ta'minlash ahamiyati, uning me'yorlari yoritib o'tilgan. Shuningdek, tegishli ko'rsatkichlar tahlil etilib, ta'sir etuvchi omillar sanab o'tilgan. Soha doirasida ayrim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: vitaminlar, oziq-ovqat mahsulotlari, salomatlik, meva va sabzavotlar, vitaminlar va minerallar, kletchatkalar, bioaktiv birikmalar, antioksidant faollik, immunitet, antibakterial xususiyatlar, dukkakkilar, oqsillar.

Abstract: Maintaining people's health, providing them with fruit and vegetable products rich in necessary vitamins and proteins is one of the main tasks of the agricultural sector of every country. Its solution allows to achieve food independence of the country as well as to improve the quality of life of the population. The importance of providing the population with fruits and vegetables rich in vitamins and its standards are explained in the article. Also, relevant indicators are analyzed and influencing factors are listed. Some recommendations are given within the field.

Key words: vitamins, food products, health, fruits and vegetables, vitamins and minerals, fiber, bioactive compounds, antioxidant activity, immunity, antibacterial properties, legumes, proteins.

Kirish

Inson uzoq umr ko'rishni xohlaydi. Shuning uchun sog'lom bo'lishga yordam beradigan mahsulotlarni tez-tez iste'mol qilish, shuningdek, sport bilan shug'ullanish va stressni nazorat qilishga harakat qilish lozim. Bunda asosan oqsil, vitaminlarga boy mahsulotlar alohida ahamiyatga egadir. Qishloq xo'jaligida ko'plab **oqsilga boy mahsulotlar yetishtiriladi**. Oqsil organizmni o'zini o'zi tiklashi uchun zarur, uni yetarli darajada iste'mol qilish lozim.

Inson salomatligi borasida prezidentimiz o'z ma'ruzalarida: "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga,



2-TOM, 7-SON

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir.”- deb ta'kidlab o'tganlar [1].

Aholini vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda sabzavotchilik muhim o'rin tutadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti global salomatlik holati to'g'risidagi hisobotda ta'kidlanganidek, ratsiondagi meva va sabzavotlarning past ulushi sog'liqni saqlashga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi [4]. Aholining sabzavot mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi uni ta'minlash darajasiga bog'liq bo'lib, birinchi navbatda, mamlakatda sabzavotchilikning rivojlanishi bilan belgilanadi. Shu bois, mahalliy sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifani - aholi salomatligini yaxshilashni hal qiladi, chunki bu ratsionda sabzavot iste'molini oshirishga yordam beradi.

Asosiy qism

Inson salomatligi uchun meva va sabzavotlarni iste'mol qilish juda muhimdir. Bunda juda ko'p turli xil mevalarni iste'mol qilish orqali tana ko'plab vitaminlar va minerallar, shuningdek, zarur fito va suvning yetarli miqdorini oladi.

Meva va sabzavotlarda ko'p miqdorda suv, kletchatkalar, vitaminlar, minerallar va bioaktiv birikmalar mavjud, ammo ularda kam yog' bo'lib; ular nisbatan kam energiya beradi, shuning uchun ular tana vaznini nazorat ostida saqlashga yordam beradi. Meva va sabzavotlar tarkibidagi moddalarning himoya mexanizmlariga, masalan, antioksidant faollik, immunitetni oshirish, qondagi xolesterin darajasiga ta'sir qilish, qon bosimini pasaytirish va antibakterial xususiyatlar kiradi.

Yetilgan dukkaklilar oqsillarga boy, ammo ularning oqsillaridagi muhim aminokislotalarning to'plami va miqdori hayvonlardan olingan oqsillarga qaraganda bir oz kamroq bo'ladi. Oziq-ovqatdan nisbatan qimmatli va muvozanatli protein aralashmasini olish uchun o'simlik turli xil oqsillarni birgalikda iste'mol qilishni ta'minlash kerak.

Meva va sabzavotlarda eng ko'p C vitamin mavjud. Shuningdek, ularda Ye vitamini, folat va boshqa B vitaminlari bor.

Sabzavotlarni yangi iste'mol qilish yoki turli xil taomlar (pishiriqlar, sho'rvalar) tarkibida uzatish mumkin. Konservlangan sabzavotlar juda ko'p tuzni o'z ichiga olishi mumkin, shuning uchun ular orasida yengil tuzlangan variantlarga ustunlik berish kerak.

Yaxshisi mevalarni yangi uzilganini iste'mol qilgan ma'qul, lekin ular turli xil shirinliklarning bir qismi sifatida termal qayta ishlanishi mumkin. Konservlangan mevalarda shakar juda yuqori bo'lishi mumkin. Qurtilgan mevalar va rezavorlar yangi mevalarga qaraganda 100 grammda ko'proq mineral moddalarni o'z ichiga oladi, ammo ulardagi kaloriya sezilarli darajada yuqori ekanligini va yangilarga qaraganda kamroq



2-TOM, 7-SON

vitaminlar mavjudligini yodda tutish kerak.

O'rtacha energiya talabi (1800-2500 kkal) bilan sabzavot va mevalarning kunlik porsiyalari soni 6-9 taga yetishi mumkin. Juda ko'p sabzavot va mevalarni iste'mol qilish ham yaxshi emas, chunki u holda boshqa guruhlardan (sut, baliq, go'sht, non va boshqalar) oziq-ovqatlarni iste'mol qilish qiyin bo'ladi, bu esa muhim aminokislotalar va yog' kislotalarining shuningdek, ba'zi vitaminlar va minerallarning yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Juda ko'p shirin mevalar, banan, uzum va boshqalarni iste'mol qilganda odam juda ko'p uglevodlarni oladi. Agar oziq-ovqatdan olingan energiya ishlatilmasa, ortiqcha uglevodlar tanadagi yog'larga aylanadi, bu esa ortiqcha tana vazniga olib kelishi mumkin[2].

Quyidagi jadvalda salomatlikni saqlash uchun soddalashtirilgan taxminiy tavsiyalar keltirilgan.

1-jadval

Inson sog'ligini saqlash uchun soddalashtirilgan taxminiy tavsiyalar

Oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari	Energiya tavsiyalariga muvofiq kunlik tavsiya		Tarkibidagi oziq moddalar va ularning eng yaxshi manbalari
	2200 kkal (ayollar uchun)	2600 kkal (erkaklar uchun)	
Sabzavotlar	kuniga min. 400 g	kuniga min. 500 g	-oqsillar (dukkaklilar); - muhim uglevodlar, ayniqsa kletchatka (dukkaklilar, rezavorlar, sabzavotlar, karam);
Mevalar	kuniga 300 g		- β-karotin (sabzi, qovoq, karam, ismaloq); - B ₁ vitamini (dukkaklilar); - vitamin B ₂ (qo'ziqorin, bargli sabzavotlar, no'xat); -vitamin B ₆ (paprika, banan, karam); ; - folatlar (dukkaklilar, yashil sabzavotlar (masalan, karam, ismaloq, brokkoli), lavlagi, kolrabi); - vitamin C (barcha mevalar, sabzavotlar, rezavorlar, ayniqsa



2-TOM, 7-SON

	<p>atirgul(shipovnik) mevasi, qizil qalampir, qora va qizil smorodina, zaytun mevalari, qulupnay, kivi, sitrus mevalari (masalan, pomelo, apelsin), karam (masalan,, brokkoli, gulkaram, kolrabi), ismaloq, shaftoli, nektarin, krijovnik);</p> <p>-kaliy (quritilgan mevalar va rezavorlar (masalan, o'rik, papayya, mayiz), banan, turp, dukkaklilar, artishok, yashil sabzavotlar (masalan, ismaloq), turp, lavlagi, karam (masalan, brokkoli), sabzi, banan, smorodina);</p> <p>- kaltsiy (o'simliklarning quyuq yashil qismlari, dukkaklilar);</p> <p>- magniy (ismaloq, dukkaklilar, banan);</p> <p>- oqsillar (dukkaklilar);</p> <p>- mis (qo'ziqorinlar, quritilgan mevalar va rezavorlar, dukkaklilar).</p>
--	--

Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishda mahalliy mahsulotlar yoki qo'shni davlatlar mahsulotlariga ustunlik berish, pishirish uchun mavsumiy mahsulotlarni tanlash to'g'ri bo'ladi. Mahalliy mevalar va turli navlarni tanlab, siz biologik xilma-xillik va tuproq unumdorligini saqlashga yordam berasiz. Turli xil ovqatlanish ham sog'liq uchun foydalidir.

Ayniqsa, oziq-ovqat uchun tabiat in'omlarini yig'ish va o'z mahsulotlarini yetishtirish eng yaxshi yo'l hisoblanadi.

Namangan viloyatida aholini vitaminlarga boy bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash jarayonlarini viloyatda yetishtirilayotgan mazkur turdagi mahsulotlarni ko'rsatkichlarini o'rganish orqali tahlil etib o'rganamiz.

2023 yil yakuni bo'yicha respublikada yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida 11,7 % Namangan viloyati hissasiga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati oldingi yilga nisbatan 5,8 % ga teng bo'ldi.

2024-yilning yanvar–martga oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 361,0



2-TOM, 7-SON

t. sabzavotlar (2023– yilning yanvar– martga nisbatan 5,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi [5].

2-jadval

Tumanlar kesimida sabzavotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va o‘shish sur‘ati

Hududlar	Ishlab chiqarish hajmi, tonna	O‘shish sur‘ati %
Namangan	1 171	104,6
Norin	267	67,9
Uchqo‘rg‘on	153	119,2
Pop	150	247,2
Uychi	119	131,8
To‘raqo‘rg‘on	111	84,4
Namangan sh.	106	98,2
Chust	85	162,5
Yangiqo‘rg‘on	64	100,3
Kosonsoy	61	177,2
Chortoq	45	143,5
Mingbuloq	31	139,1

Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,0 % ni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-mart oylarida sabzavotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini tumanlar bo‘yicha tahlil qilinganda Namangan tumanida (1 171) tonna, Norin (267) hamda Uchqo‘rg‘on (153) tumanlarida ishlab chiqarish hajmlarining yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

3-jadval

Xo‘jalik toifalarida sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlari

(2024- yilning yanvar-mart oylarida)

Sabzavotlar jami	2 361	105,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	513,0	110,6



2-TOM, 7-SON

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1795	104,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchitashkilotlar	53	100,0

Meva-sabzavot yetishtirish samaradorligini oshirish butun iqtisodiyot uchun ham, har bir korxonaga uchun ham katta muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ko'plab omillar bilan bog'liq. Birinchidan, cheklangan resurslar sharoitida ishlab chiqarish hajmining oshishi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishga yordam beradi. Ikkinchidan, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarish tannaxlari kamayadi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlarining chakana narxlari darajasiga ta'sir qiladi. Uchinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish korxonaga daromadlarining oshishini ta'minlaydi, mehnat jamoalarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'proq mablag'lar ajratiladi[3].

Xulosa va takliflar

Meva-sabzavot yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha hozirda olimlar oldida aniq va samarali chora-tadbirlarni izlash vazifasi turibdi. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sub'yektlarini jadal o'zgaruvchan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish maqsadida agrosanoat majmuasining har bir tarmog'i va sohasini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy, uslubiy va amaliy muammolarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sohani rivojlantirish uchun ayrim tavsiyalarni keltiramiz: sabzavot yetishtirishda qishloq xo'jaligi korxonasida strategiyani shakllantirishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini umumlashtirish va meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni kengroq o'rganish va aniqlash; hududlarda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish holati hamda rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish; tashqi muhitdagi imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlash; kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, unga muvofiq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish; mavjud imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish; meva-sabzavotlarni yetishtirishda yangi texnologiyalarni joriy etish, ilg'or tajribalarni o'rganish, yangi usullaridan samarali foydalanish va boshqalar.



2-TOM, 7-SON

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентини Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2018.* <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/203>
2. **Фрукты и овощи, ягоды.** <https://toitumine.ee/ru/kak-pravilno-pitatsya/rekomendatsii-v-oblasti-pitaniya-i-piramida-pitaniya/frukty-i-ovoshhi-yagody>
3. А.А. Дубовицкий, Э.А. Климентова. Проблемы и перспективы развития овощеводства. Технологии пищевой и перерабатывающей промышленности АПК - продукты здорового питания, № 3, 2014. <file:///C:/Users/user/Downloads/problemy-i-perspektivy-razvitiya-ovoshevodstva.pdf>
4. <https://www.dissercat.com/content/formirovanie-bazovoi-strategii-razvitiya-ovoshchevodstva-v-selskokhozyaistvennykh-organizats>
5. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <http://nam.stat.uz/>



MA'SULIYATLI OTALIK BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

I.A. Bakiyeva

*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha katta ilmiy xodimi, i.f.n., dos.*

Sh.A. Abdiraimova

*“Oila va gender ilmiy-tadqiqot
instituti ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchisi*

shakhnoza.abdiraimova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ma'suliyatli otalik bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilgan. Jumladan: “Nigerdagi erkaklar maktabi”, Braziliyada jismoniy va haqoratli tazyiq-zo'ravonlikga barham berish, AQShda Oila kursi, AQShda hamshiralar oilasi hamkorligi, Gonkongda ijobiy otalik, UNICEFda dadalar maktablari kabi dastur va kurslar haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar. Masuliyali otalar, otalar maktabi, erkaklar maktabi, oila, ijobiy otalik, onalar, hamshiralar oilasi.

Аннотация. В данной статье изучен передовой зарубежный опыт ответственного отцовства. Среди них кратко освещены такие программы и курсы, как «Мужская школа в Нигере», «Покончить с физическим и жестоким насилием в Бразилии», «Семейный курс» в США, «Партнерство семьи медсестер» в США, «Позитивное отцовство» в Гонконге, «Школы для пап» в ЮНИСЕФ.

Ключевые слова. Ответственные отцы, школа отцов, школа мужчин, семья, позитивное отцовство, матери, кормящая семья.

Annotation. In this article, advanced foreign experiences on responsible fatherhood are studied. Among them, programs and courses such as "Men's School in Niger", Ending Physical and Abusive Violence in Brazil, Family Course in the USA, Nurse Family Partnership in the USA, Positive Fatherhood in Hong Kong, Dad Schools in UNICEF are briefly covered.

Key words. Responsible fathers, school of fathers, school of men, family, positive fatherhood, mothers, nursing family.

Kirish. Xozirda dunyo mamlakatlari bo'yicha kundun-kunga oilaviy qadriyatlar o'zgarib bormoqda. Nikoh quruvchilarning ba'zilar bir-biri bilan munosabatlari, kelajakda farzand tarbiyasida qanday omillardan foydalanishlari muhimligi, oilani mustahkamlashda



2-TOM, 7-SON

nimalarga e'tibor qaratishi lozimligiga be'etibor bo'lib qolmoqda. Buning oqibatida oilada nozog'lom muhit vujudga kelmoqda, oilalar parokanda bo'lib bormoqda. Zamonaviy oilalar tobora kamroq farzand ko'rishni afzal ko'rmoqda.

Hozirda ayollar dunyoning mehnatga layoqatli aholisining yarmini tashkil qiladi va ko'plab mamlakatlarda ularga erkaklar bilan teng huquq berishga qaratilgan qonunlar qabul qilinmoqda. Biroq, ko'plab mamlakatlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik darajasi hali ham yuqori. Bolalar farovonligini ta'minlash sohasidagi vaziyat yaxshi tomonga o'zgarmoqda: ularning omon qolish darajasi oshmoqda, ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, dunyoning turli burchaklarida hali ham uyda, ko'chada, maktabda, bolalar bog'chasida va ish joyida zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalar ham bor.

Bundan tashqari, kuchli ijtimoiy-madaniy qarshilik tufayli yoshlar ham, kattalar ham uy yumushlari va bolalarga g'amxo'rlik qilish uchun teng mas'uliyatni qabul qilishni, shuningdek, jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni istamaydi. Erkaklar odatda ayollarga qaraganda ko'proq maosh olishlari erkakning asosiy vazifasi oilasini moddiy jihatdan ta'minlashdan iborat degan madaniy shartli, fikrni mustahkamlaydi. Kengroq nuqtai nazardan, ish joyida va kundalik hayotda gender tengsizligi rivojlanishiga erkaklik nima va erkak qanday bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyalarni belgilaydigan ijtimoiy va madaniy me'yorlar yordam beradi. Ayollarning rolini pasaytiradigan va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqidan mahrum qiluvchi ijtimoiy-madaniy stereotiplarni o'zgartirish va pirovardida yo'q qilish, erkaklarning turmush o'rtog'i va bolalariga faol g'amxo'rlik qilishiga to'sqinlik qilish, ularning farovonligini sezilarli darajada yaxshilash uchun jamiyatning barcha darajalarida shoshilinch choralar ko'rish zarur.

Asosiy qism. Erkaklarning bola tarbiyasi va ona, bola, jinsiy va reproduktiv salomatlikdagi asosiy roli tobora e'tirof etilayotganiga qaramay, ko'pchilik hali ham farzand ko'rish, parvarish qilish va uy-ro'zg'or ishlarida ayollar mas'ul degan fikrni olg'a surmoqda. Albatta, ayollar qachon farzand ko'rishni, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi, iqtisodiy mustaqillikka erishish huquqiga ega bo'lishi kerak, ammo bunda erkaklar ham ayollarning ittifoqdosh sifatida ishtirok etishi uchun ayollarga shunday sharoit yaratishi kerak. Oilaviy mas'uliyatni yanada adolatli taqsimlash uchun mustahkam poydevor yaratish uchun erkaklarni o'z farzandlarini zo'ravonliksiz tarbiyalashda teng mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga da'vat etish kerak va ularni uy ishlarida, jinsiy va reproduktiv salomatlik masalalarida ko'proq ishtirok etishda rag'batlantirish kerak.



2-TOM, 7-SON

Erkaklarning oilaga g'amxo'rlik qilishda ko'proq ishtirok etishining afzalliklarini aytib bo'lmaydi. Bolalarga g'amxo'rlik qilish orqali erkaklar ular bilan kuchliroq va iliqroq aloqalarni o'rnatadilar. Uzoq muddatli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, g'amxo'r va mehribon otalarning farzandlari boshqalarga qaraganda o'zlarini ishonchli his qiladilar, zo'ravonlikdan yaxshiroq himoyalanaadilar, kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishadi va hayotdagi stressli vaziyatlarni osonlikcha yengishadi. Quyida oilada erkakning ma'suliyatini oshirish va farzand tarbiyasida ota-onalarning o'rnini mustahkamlash borasida o'tkazilgan ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalaini ko'rib chiqamiz.

“Nigerdagi erkaklar maktabi”. Niger Respublikasi — G'arbiy Afrikadagi davlat. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erkaklarning o'z turmush o'rtoqlari ustidan nazorati va ta'siri ayollarning reproduktiv salomatlik xizmatlaridan foydalanishidagi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Bunga javoban, UNFPA tomonidan Nigerdagi erkaklar reproduktiv salomatlikni qo'llab-quvvatlashlari, ommaviy ishlarga jalb qilish uchun Erkaklar maktabi (Ecole des Maris) ni yaratdi. Unga erkaklar ixtiyoriy ravishda ishtirok etishadi va har oyda ikki marta reproduktiv salomatlikning o'ziga xos jihatlarini muhokama qilish hamda ushbu muammolarning jamiyat tomonidan maqbul yechimlarini topish uchun uchrashdilar. Erkaklar guruh yig'ilishlarida qatnashgandan so'ng, er-xotinlar munosabati va xulq-atvorida bir qancha ijobiy o'zgarishlar, jumladan, ayolining sog'lig'i bilan bog'liq muammolarni muhokama qilish istagi ortganligi haqida aytishdi. Ehtimol, bundan ham muhimi, maktabda ishtirok etgan erkaklarning ayollarida farzand dunyoga keltirish bo'yicha malakalari ko'proq bo'ladi. Shundan keyin, erkaklar maktabi (Ecole de Maris) tashabbusi boshqa mintaqa va mamlakatlarda ham ko'tarildi¹.

Braziliyada jismoniy va haqoratli tazyiq-zo'ravonlikga barham berish. *“Promundo”* va *“Save the Children”* tomonidan birgalikda ishlab chiqarilgan va Bernard van Leer jamg'armasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan qo'llanma otalar, onalar va boshqa g'amxo'rlik qiluvchilarga farzand tarbiyasida ma'lumotlar va yordam beradi. Qo'llanmada bolalarga nisbatan jismoniy va kamsituvchi jazolardan foydalanishga qarshi bo'lgan ta'lim-tadbirlarini taklif qiladi².

AQShda oila kursi. AQShning Pensilvaniya (University of Pennsylvania) universitetida farzand tug'ilishini kutayotgan ota-onalar uchun kurs ishlab chiqildi. Kurs er-xotinlardagi oilaviy munosabatlarni yaxshilash va ma'suliyatli ota-ona tamoyillarini

¹ Дополнительная информация доступна по ссылке: <http://niger.unfpa.org/>.

² Дополнительная информация и скачивание руководства доступны по ссыл ке: <http://www.promundo.org.br/en/publications forprofessionals/>.



2-TOM, 7-SON

saqlashga qaratilgan. Olti haftalik dastur farzand tug'ilishdan oldin va tug'ilgandan keyin bo'lib, u 3 seansni o'z ichiga oladi. Kurs natijalari shuni ko'rsatdiki, onalar tug'ruqdan keyingi depressiyaga kamroq duchor bo'lishadi, 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda xulq-atvor va hissiy muammolar kamroq bo'ladi³.

Shvetsiya va Sharqiy Yevropada Otalar maktabi ("Father Schools", «Папашколы»). G'arbiy va Sharqiy Yevropadagi hamkor tashkilotlar (jumladan, Shvetsiyaning "Erkaklar gender tengligi uchun" tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan kurs bo'lajak otalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni kamaytirish va ota-onalarning bolalar bilan munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan. Kurs gender tengligining ahamiyatiga va bo'lajak otalar o'z tajribalarini muhokama qilishlari, otalik ro'lini o'rganishlari uchun ishonchli muhit yaratishga asoslanadi. Guruhlarda ishlashda, erkaklar bir-birlari bilan ma'lumot almashishadi, bir-birlarini hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar va otalik xatti-harakatlarining yangi modellarini yaratadilar. Kursda erkaklar, bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo'ladi degan nomaqbul fikrni yo'q qilish uchun mo'ljallangan.

Onalarni o'qitish dasturi ("Mama's Club"), Uganda 2003-yilda boshlangan "Mama's Club" («Мамаклуб»), dasturi. OIV bilan kasallangan onalarni qo'llab-quvvatlash va OIVning onadan bolaga yuqishini oldini olish uchun jamiyatda qanday ishlash kerakligi haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan dasturdir. Radio va televideniyaedagi muhokamalar, qo'shiq va raqslar orqali pedagoglar OIVga chalingan onalar duch kelayotgan kamsitishlar, tayziq va zoravonliklar haqida ishonchli gapirib, jamoatchilik e'tiborini ushbu muammoni oldini olishga qaratmoqda. Uning muhim tarkibiy qismi bu guruhdagi ta'lim faoliyati orqali erkaklarning munosabati va xatti-harakatlarini o'zgartirishdir. Guruhlar ham ota, ham ona qatnashishishi mumkin, unda o'qitilgan erkaklar keyinchalik boshqa guruhlar uchun trener va o'qituvchi bo'lib, erkaklarga OIV bilan yashayotgan ayollarning ehtiyojlari haqida ma'lumot beradi, ularni sheriklarini qo'llab-quvvatlashga va yanada mas'uliyatli ota-ona bo'lishga undaydi⁴.

AQShda hamshiralar oilasi hamkorligi. Ushbu dasturda hamshiralar oila hamkorligida, ayol homiladorlik davrida, bola 2 yoshga to'lgunga qadar uyga tashrif buyurish dasturidir. Dastur homiladorlikni samarali boshqarish orqali homiladorlik natijalarini yaxshilash, onalar salomatligi va bolaga g'amxo'rlik qilish bo'yicha bilimlarni oshirish, oilani rejalashtirish usullaridan foydalanishni ko'paytirish, onalarga o'qishni yakunlash va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan. Bo'lajak otalar hamshira tashriflari dasturidagi darslarning 51 foizida qatnashgan (ammo barcha

³ Дополнительная информация доступна по ссылке: <http://www.famfound.net/>

⁴ Дополнительная информация: <http://www.aidstarone.com/mama's club.>



2-TOM, 7-SON

tashriflarda otalarning atigi 5 foizi ishtirok etgan). Dastur oxirida ikkala ota-ona ham o'zlarining ota-ona rollarida o'zlarini yanada ishonchli his qilishganini aytishdi. Taxminan 58% onalar bolani otasi bilan bo'lishish uchun qo'shimcha materiallarni so'rashgan, chunki ular erkaklar ishtiroki foydali ekanligini his qilishgan⁵.

Gonkongda ijobiy otalik («Позитивное отцовство») dasturi. “Ijobiy otalik” dasturining maqsadi er-xotinlarda sheriklar tomonidan zo'ravonlikning oldini olishdir. Dastur otalarning o'z farzandlariga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini oshirish, nizolardan qochish strategiyalarini o'rgatish va er-xotinda ishonchli muloqotni qanday o'rnatishni tushuntirishga qaratilgan 3 ta mashg'ulotdan iborat. Ushbu tadbirlar Gonkong sog'liqni saqlash tizimi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar bilan bog'liq. Dasturning ta'sirini baholash shuni ko'rsatdiki, mashg'ulotlarda qatnashgan juftliklar sog'lom muloqotni boshdan kechirgan, bolalarga g'amxo'rlik qilish qobiliyatiga ishonchi ortgan va tug'ruqdan keyingi depressiya holati pasaygan.

UNICEFda dadalar maktablari («Папашколы ЮНИСЕФ»), 2004-yilda UNICEF tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mintaqadagi respondentlar bolalar salomatligi va rivojlanishi haqida kam ma'lumotga ega. Javob bergan ayollarning ko'pchiligi emizishning afzalliklaridan bexabar edi. Otalar bu imtiyozlar haqida kamroq eshitdilar va bolalarini parvarish qilish bilan umuman shug'ullanmadilar. Ota-onalar bolalar bilan o'ynash, bolalarga o'qish va umuman ular bilan muloqot qilishning ma'nosini deyarli bilmadilar. Tadqiqot natijasida UNICEF tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bolalar rivojlanish markazlari farzand kutayotgan ota-onalarga dasturlarni taklif qila boshladi. Bir mintaqada tug'ruq paytida erkaklar soni 4% dan 75% gacha ko'tarildi [UNICEF]. Dastur doirasida farzand kutayotgan otalar tug'ilishdan oldin olti-etti marta va tug'ilgandan keyin bir yoki ikki marta 2 soatlik guruh mashg'ulotlarida qatnashdi. Dastur quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: faol ota-onalik muhimligini anglash, chaqaloq tug'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, ota-ona ta'tillaridan foydalanishni targ'ib qilish, emizishni qo'llab-quvvatlash, bola rivojlanishi bo'yicha ota-onalarning bilimini oshirish, bolalar huquqlarini himoya qilish va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish⁶.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir davlatning o'z mintalitetidan kelib chiqqan holatda ma'suliyatli otalikni o'rnini oshirish zarur. Bunda asosiy e'tiborni xomiladorlik paytidan boshlash kerak. Masalan farzand ona qornida rivojlanayotgan davrida

⁵ Дополнительная информация: <http://www.nursefamilypartnership.org/>.

⁶ Дополнительная информация: http://www.unicef.org/ukraine/reallives_12082.html



2-TOM, 7-SON

barcha narsani his qiladi, shuning uchun bo'lajak otalar turmush o'rtog'ining reproduktiv, jismoniy, ruhiy salomatligiga alohida e'tibor berishi lozim. Onaga bo'lgan ma'suliyat bolada shakllanadi. Bolalarga ma'suliyat bilan qarashni oshirish uchun birinchi navbatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikni mustahkamlash zarurdir. Bunga ijobiy nuqtai nazar bilan qarash zarurdir. Shunda nafaqat oilada otaning masuliyati oshadi balki oilalarda sog'lom muhit shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Fatherhood Institute. (2007). Fatherhood Institute Research Summary: Fathers Attending Births. United Kingdom: Fatherhood Institute. Retrieved from http://www.fatherhoodinstitute.org/2007/fatherhood_instituteresearchsummary_fathersattendingbirths/.
2. Save the Children (2005). Ending Physical and Humiliating Punishment of Children — A manual for action. Stockholm: Save the Children Sweden and the International Save the Children Alliance.
3. World Health Organization. (2005). Addressing violence against women and achieving the Millennium Development Goals. Geneva: World Health Organization. http://www.who.int/gender/documents/women_MDGs_report/en/index.html.
4. Teitler, J.O. (2001). Father involvement, child health and maternal health behavior. *Children and Youth Services Review*, 23(4/5), 403–424.
5. Nock, S. and Einolf, C.J. (2008). The One Hundred Billion Dollar Man: The Annual Costs of father absence. National Fatherhood Initiative.
6. Дополнительная информация и скачивание руководства доступны по ссылке: http://www.promundo.org.br/en/publications_forprofessionals/.



ULUG'BEK HAMDAMNING "ISYON VA ITOAT" VA SOMERSET
MOEMNING "OY VA SARIQ CHAQA" ASARLARIDA INSON VA JAMIYAT
MUAMMOSI

Bekzod Ko'liboyev Orzuboy o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

bekzodkulibayev@mail.ru 91 504 71 65

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o'zbek hamda ingliz adiblari Ulug'bek Hamdam va Somerset Moem asarlarida aks etgan inson va jamiyat muammosi hamda uning o'ziga xos jihatlari tahlilga tortilgan. Mazkur asarlar ustida o'tkazilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek va ingliz adabiyotida inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tushunchasining o'xshash hamda farqli tomonlarining qiyosiy tahlili asosida amalga oshirilganligidir. Adiblarning asarlarida "inson va jamiyat" g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari, o'zaro aloqalardagi muammolarning kelib chiqish sabab va oqibatlari, ushbu chigalliklarning inson ruhiyatiga ta'sirlarini badiiy yoritib, tahlil qilishda ushbu asarlarning o'rni tadqiq qilingan.

***Kalit so'zlar:** inson, jamiyat, xarakter, reallik, ijtimoiy-psixologik konsepsiya, tizim, tahlil, tadqiq.*

ANNOTATION

In this thesis, the scientific research consists of studying the concepts of man and society in Uzbek and English literature, that is, in the works of Ulugbek Hamdam and Somerset Maugham, their comparative analysis and finding their uniqueness. will be briefly covered. The scientific novelty of the research conducted on these works is that the similar and different aspects of the concept of interaction between man and society in Uzbek and English literature were carried out on the basis of a comparative analysis. In the works of writers, the specific characteristics of the ideas of "man and society", the causes and consequences of the problems in mutual relations, the influence of these complications on the human psyche, and the role of this work in the analysis of the artistic light have been studied.

***Key words:** human, society, character, reality, socio-psychological concepts, system, analysis, research.*

АННОТАЦИЯ



2-TOM, 7-SON

В диссертации анализируются проблема человека и общества, отраженная в произведениях узбекских и английских писателей Улугбека Хамдама и Сомерсета Моэма, и ее конкретные аспекты. Научная новизна исследования, проведенного по данным работам, заключается в том, что оно проведено на основе сравнительного анализа сходных и разных сторон концепции взаимодействия человека и общества в узбекской и английской литературе. В произведениях писателей раскрывается специфика идей “человека и общества”, причины и следствия проблем во взаимоотношениях, а также роль этих произведений в художественном освещении и анализе воздействия этих осложнений на человека. изучалась психика.

Ключевые слова: человек, общество, характер, реальность, социально-психологическая концепция, система, анализ, исследование.

Kirish

Adabiyot – so‘z san’ati, azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi ekanligi barchamizga ayon. Milliy mustaqilligimiz tufayli barcha sohalarda bo‘lgani kabi adabiyotimizda ham qator yangilanishlar ro‘y bermoqda. Adabiyotshunoslar va ijodkorlarning ijodida shakliy va mazmuniy yangilanishlar bilan bir qatorda so‘z san’ati, ijod sohasidagi qarashlarida ham o‘ziga xos yangicha qarashlar namoyon bo‘lmoqda. “Istiqlol davri adabiyoti muammolar adabiyotidan, dolzarb masalalar ko‘taruvchi adabiyotdan inson ruhiyati qatlamlarini badiiy tadqiq etuvchi, tekshiruvchi adabiyotga aylanib bormoqda”.¹

Ulug‘bek Hamdam va Somerset Moem ijodida inson va jamiyat masalasi adabiyotimizda u yoki bu jihatlari bilan yoritilgan bo‘lsa ham, yaxlit holda tadqiq etilmagan. Ilmiy ishining dolzarbligi esa yozuvchilarning birgina ijod namunasini o‘zaro qiyoslagan holda, makro va mikroxtanotop masalasiga ham ilmiy-badiiy yondashuv belgilab o‘tilgan. Mazkur ilmiy ishning dolzarbligi ana shu bilan belgilanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagilardan iborat:

- a) inson va jamiyat tushunchasining o‘zbek va jahon adabiyotida tutgan o‘rni hamda bahsli nazariyalarini chuqur tadqiq qilish zaruriyati;
- b) inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni shakllanishi va ushbu g‘oyani tadqiq qilish;

¹ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti, “Sharq”, 2004.



2-TOM, 7-SON

c) yozuvchilarning asarlarida o'zaro munosabatlarni shakllantirish tamoyillarini belgilovchi elementlardan biri sifatida badiiy talqinini tahlil qilish;

d) asarlardagi makroxronotop va mikroxonotop yuzaga keltirgan ijtimoiy omillarning badiiy tasvirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda asosan, qiyosiy-tipologik, tavsifiy o'rni bilan struktural metodlar qo'llanildi. Tadqiqotni xarakter va mohiyatiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- *inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar;*
- *asarlardagi obrazlar tahlili;*
- *makroxronotop va mikroxonotoplarning uyg'unligi;*

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni tashkil qiladi: badiiy jarayonda insonning jamiyatdagi rolini keng tadqiq va tahlil etish, jamiyatning qahramon ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta'sirlarini o'rganish, "Oy va sariq chaqa" asarida ijodkor shaxs muammosi o'rganish, unga xos xususiyatlarni oydinlashtirish, "Isyon va itoat" romanining konseptual g'oyasini yuzaga chiqaruvchi ustoz va shogird obrazlari orqali asarlarda inson va jamiyat munosabatlarini tahlil etish, mavzu va obrazlar ko'lami jihatidan yangilanishlarni tadqiq etish, yozuvchilarning obraz, xarakter va tip yaratish usullarini va vositalarini ko'rsatib berish, makroxronotop va mikroxonotopning metaforik uyg'unligini yoritish, ramziylik, ramziy obrazlar yaratishdagi g'oyaviy-badiiy niyat va mahoratni tadqiq etish, tahlillardan kelib chiqib, yozuvchi uslubidagi an'ana va o'ziga xosliklarni yoritish, mavzu yuzasidan umumiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. "Isyon va itoat" hamda "Oy va sariq chaqa" asarlarda inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning badiiy talqini, jamiyatning qahramon ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta'siri, "Isyon va itoat" asarida obraz, xarakter va tip, "Oy va sariq chaqa" romanida ijodkor shaxs muammosi, "Isyon va itoat" romanining konseptual g'oyasini yuzaga chiqaruvchi ustoz va shogird obrazlari tahlili. Adiblarning obrazlar tizimi, bayon uslubidagi yangicha qarashlari oydinlashtirildi. Asarlarda inson ruhiyati, fikrlari, his-tuyg'ularning keng silsilasini turli ziddiyatli bo'yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suratlantirish, shaxsning yuksak milliy-umuminsoniy mohiyatini jonli tarzda ochib berishga intilish yetakchi yo'nalishga aylandi.

"Isyon va itoat" romanida tanlangan mavzu markazida ham inson va uning ichki dunyosi mavzusi turadi. Insonni ham eng go'zal yaratiq, ham qismat oldida har qancha urinmasin juda ojiz ekanligi tasvirlanadi.



2-TOM, 7-SON

“Pag‘a-pag‘a oppoq qor yog‘ar.

Bog‘lar kiymish ilohiy libos.

“Tug‘ilmoqning, dunyoda yashamoqning ma‘nisi shu go‘zallikni his qilish, unga e‘tibor ko‘rsatishda ham emasmikan?..” – deya mulohaza yuritardi Akbar yuz-ko‘zlariga uchib kelib qo‘nayotgan hamda zumda erib ketayotgan laylak qordan zavqlanib...”²

“...Nihoyat, ishq! Faqat ugina endi menga nimalarnidir o‘rgatmoqchi bo‘lyapti, men ham uning qarshisida nafasim bo‘g‘zimga tiqilib hayajonlanyapman. Gapning sirasi, men uni hali tuzukroq bilmayman, biroq tiriklikning eng azim hikmati ishqda kabi tutilmoqda. Ishqilib, shunday bo‘lsin, ishqilib, tag‘in aldanmay. Agar kutganim yana sarob bo‘lib chiqsa, ko‘tarolmayman. Gunoh-pinohiga qaramay, jonimga qasd qilaman-qo‘yaman. Holbuki, u o‘z shirinligini allaqachon boy berib bo‘lgan...”³. Badiiy psixologizmning badiiy qahramon mikroxronostopini yaratishdagi o‘rnini inkor etib bo‘lmaydi va uning mavjud har bir usullari ham asarning to‘liq tushinilishini va ta‘sirchanligini oshiradi. Shuningdek voqealar qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg‘ulari, tafakkur va mulohazasi, o‘y-fikrlari dinamikasi bilan tasvirlanadi. Bunda bir hisdan boshqa his, bir o‘ydan boshqa fikr o‘sib chiqadi, ular bir-birini to‘ldiradi, sifat jihatidan o‘zgartiradi. Bu shakl qahramonlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko‘rsatib berishga imkon beradi, shu sababli ham ayrim tadqiqotchilar “qalb dialektikasi” shakli deb ham ataydilar.

“Akbar qaboqlarini ochdi, asta qo‘zg‘alib, yozuv stol ustida ochiq turgan kattakon daftarga ergashib yozdi:

“Isyoni yo‘q qalbning Itoati ham bo‘lmaydi”. Keyin andak o‘ylanib turdi-da, daftarining ilk sahifasini ochib, kata harflar bilan yozilgan “Isyon...” so‘zining yoniga “Itoat” deb qo‘shib qo‘ydi. Akbar bu nomni necha yillardan beri qidirardi, biroq topmagandi. Nihoyat, mana u!... – “ISYON va ITOAT”, mana u – inson bo‘lishning g‘oyat mashaqqatli yo‘li, mana u – odamzod peshonasiga bitilgan qismat...”⁴

“Oy va sariq chaqa” romanida dinamik prinsip orqali qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliqlari, turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutishi va gap-so‘zlari orqali ifodalab beriladi, mohiyatan bu dramatik asar qahramonlari ruhiyatini ochish usuliga o‘xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba‘zan psixologik tahlilning “dramaturgik usul” deb ta‘riflanadi. “I tell you I’ve got to paint. I can’t help myself. When a man falls into the water

² Hamdam U. *Isyon va itoat. Yangi asr avlodi.2018,- B. 92*

³ Hamdam U. *Isyon va itoat. Yangi asr avlodi.2018,- B. 93*

⁴ Hamdam U. *Isyon va itoat. Yangi asr avlodi.2018,- B. 147*



2-TOM, 7-SON

it doesn't matter how he swims, well or badly: he's got to get out or else he'll drown."⁵(- Sizga men rasm chizishim kerak deb aytyapman. Men boshqacha yo'l tuta olmayman. Agar odam daryoga tushib ketguday bo'lsa, yaxshi yoki yomon suzishidan qat'i nazar, suv qa'ridan qutulmog'i shart, aks holda daryoga g'arq bo'ladi.) Bundan tashqari, obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lab tasvirlab beriladi.

"I paused, and I looked at him searchingly.

"What's the good of trying to humbug me?" I said.

"I don't know what you mean."

I smiled.

"Let me tell you. I imagine that for months the matter never comes into your head, and you're able to persuade yourself that you've finished with it for good and all. You rejoice in your freedom, and you feel that at last you can call your soul your own. You seem to walk with your head among the stars. And then, all of a sudden you can't stand it anymore, and you notice that all the time your feet have been walking in the mud. And you want to roll yourself in it. And you find some woman coarse and low and vulgar, some beastly creature in whom all the horror of sex is blatant, and you fall upon her like a wild animal. You drink till you're blind with rage."⁶ (Men unga sinovchan tikilganimcha jim turaverdim. - Men bilan maynavozchilik o'ynashingizdan nima foyda? — dedim nihoyat. – Tushunmayapman. - Men kulib yubordim. - Hozir tushuntiraman. Mana siz oylab hech narsa haqida o'ylamaysiz va bu bilan hammasini bir umrga unutdim deb o'ylaysiz. Siz erkinlikdan lazzatlanayapsiz va endilikda qalbim faqat o'zinga tegishli deb o'ylayapsiz. Xuddi boshingiz yulduzlarga tegib turgandek tuyuladi sizga. Keyinroq esa kutilmaganda bunday hayotga bardosh bera olmasligingizni, oyoqlaringiz yerdan ko'tarilmay doimo balchiq ichida turganini his etasiz. Bu botqoqlik sizni ham o'z domiga tortmoqchi bo'ladi. Siz birorta satang, tagi past, hayvonsifat ayolga duch kelasiz. Ayol zotining barcha eng yaramas tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan bu ayolga yovvoyi

⁵ Somerset M. The great novels and short stories of Somerset Maugham. Skyhorse and Skyhorse Publishing. 2014 – P. 191.

⁶ Somerset M. The great novels and short stories of Somerset Maugham. Skyhorse and Skyhorse Publishing. 2014 – P. 216.



2-TOM, 7-SON

hayvondek tashlanasiz. Uning bag'rida taskin topasiz, junbushingiz ko'zingizni ko'r qilib qo'yadi.) Psixologik tasvirda inson ruhiy hayotining dinamikasi, ruhiy va ruhiy kayfiyatdagi aqliy holatlar modellashtiriladi. Bu ruh shaxs ichki dunyosining va "mavjud haqiqat"ning "haqiqiy, deyarli aql bovar qilmaydigan haqiqatni" bo'lash yoki yo'l topish imkonini beradi.

Yozuvchi bu vositalar bilan qahramon siyratidagi holatlarni suratida ham aks etishi mumkin. Demak badiiy psixologizm orqali obraz mikroxtopini yaratish ko'proq yozuvchining maqsadi va uslubidan kelib chiqishi mumkin, degan fikr ham xato emas. Badiiy psixologizm - badiiy adabiyotning mohiyati, adabiyot taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi kabi masalalarni umumiy tarzda talqin qiladi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Uning yordamida badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'zbek va ingliz adabiyotida jamiyat insonlar hayoti hamda jamiyatdagi muammolarni yoritib berishda va unga yechim topishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Bular yordamida faqat birgina mavzuni emas, balki yozuvchilarning yozish uslubi hamda ularning o'xshash jihatlari haqidagi ko'plab yangiliklarni tahlil qilamiz. Yozuvchilarning mavzuga doir asarlari va bunday asarlarni yanada chuqurroq chog'ishtirib o'rganish kelgusi izlanishlar uchun davom ettirilishi mumkin. Biz tadqiq etishga uringan ikki yozuvchi ham o'z asarlaridagi g'oyalarini yoritishda o'z millatlari va ma'daniyatlaridan ko'pgina iqtiboslardan foydalanishga ham asarning g'oyaviy xususiyati sifatida ko'rildi. O'zbek va ingliz yozuvchilari inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning badiiy kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita texnika taraqqiyoti, texnologik rivojlanish va sivilizatsiya hamda uni o'rab turgan jamiyat bilan uzviy bog'lab tasvirlaydilar. Badiiy adabiyotning, jumladan romanlarning inson hayotida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, smehr va muruvvat, sevgi-muhabbat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil, yurak orqali seziladi, ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, bu hodisalarni badiiy talqinlash badiiy adabiyotning muhim ajralmas tarkibiy qismidir. Inson va uning mukammalligi, o'z asliyatini izlashi, o'z ma'naviy kamoloti xususida qayg'urish, inson va jamiyat o'rtasidagi bahsli, muammoli munosabatlar; bu kabi ipsiz bog'liqliklarning insoniyatga ta'sirlarni tasvirlashda badiiy



2-TOM, 7-SON

tasvir hamda badiiy psixologizmning ulkan o‘rni kabi muammolari Ulug‘bek Hamdam va Somerset Moem asarlarining bosh g‘oyasiga aylandi. Ilmiy izlanishlarimiz va asarlarning qiyosiy tahlillari natijasida shunday xulosaga keldikki, ushbu ikki yozuvchining ijodida bir-biriga mutanosib xususiyatlar mavjud. Ammo, shunga qaramasdan, ularning har birlari o‘ziga xos badiiy ifoda yo‘nalishiga, sujet va obrazlar ruhiyatini yaratish tamoyiliga egaligi bilan adabiyotda o‘z o‘rniga egadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aristotel. Poetika. Axloqi Kabir: Nafis san’atlar haqida. Katta axloq kitobi. – T.: Yangi asr avlodi
2. Akramova, S., & To‘rayeva, B. (2023). The Ideas of Humanism in English Literature. Академические исследования в современной науке, 2(6), 30-33.
3. Bekzod Ko‘liboy Orzuboy o‘g‘li, & B.To‘rayeva. (2024). Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va Itoat” asarida inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy talqini. GOLDEN BRAIN, 2(8), 83-87.
4. To‘raeva, B. (2023). XRONOTOP POETIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Farg‘ona Davlat Universiteti, 28(3), 24. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/1786>
<https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tush-va-mif-munosabati>
5. Turaeva, B. Chronotope Interpretation of Modern Uzbek Novels.
6. Yo‘ldosh Q. Yoniq so‘z . – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti, “Sharq”, 2004
8. *Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020*



2-TOM, 7-SON

**REVMATOIDARTRIT BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI SUYAK
ZICHLIGI HOLATINI BAHOLASHNI ZAMONAVIY MEZONLARI**

Tuychiyev Sardor Azamatovich

Qarshi davlat universiteti stajyor-tadqiqotchi

Annatsiya: Ushbu maqola revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarni suyak zichligini kamayish sabablari va uni kuchaytiruvchi omillar, uni erta aniqlash, tashxislash mezonlari to'g'risida tadqiqot metodlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Osteoporoz, osteopeniya, malabsorbsiya, densitometriya, revmatoid artrit, menopauza, osteonekroz, matriks.

Revmatoid kasalliklar (RK) inson patologiyasining keng tarqalgan shakllaridan biridir. RK muammosi butun dunyoda nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham eng muhimlardan biri sifatida qaraladi. Epidemiologik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro kasalliklar tasnifining X qayta ko'rib chiqishiga ko'ra, suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to'qima kasalliklari (SMTBK) bilan aholining 15% gacha aziyat chekadi. Shuningdek, bu kasalliklar, xususan, keksalar guruhlarida degenerativ o'zgarishlar sezilarli darajada ortib borayotgani ma'lum. 70 yoshdan oshganlarning 85-90% ga yaqin qismida bu kasalliklar kuzatiladi [6]. Shu bilan birga, ko'plab RK (asosan, tizimli yallig'lanishlar) yoshligida boshlanadi va ularning xroniklashuvi va doimiy ravishda kuchayishi natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib keladi. Surunkali RK bilan kasallangan bemorlarning umr ko'rish davomiyligi o'rtacha populyatsiyadan pastroq. RK ning dunyo bo'ylab salomatlik uchun yuqori ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BSST, 2000 yil 13-yanvar, Jeneva) SMTBK ni o'rganishga bag'ishlangan xalqaro o'n yillikni o'tkazishga qaror qildi - The Bone and Joint Decade 2000-2010 [15].

Ushbu sharoitlar tadqiqot obyektlarini (RA, SKV, OA, AS bilan kasallangan bemorlar) tanlashga sabab bo'ldi, ularda osteoporozning turli jihatlari o'rganildi.

Revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarda suyak massasi holati

Suyak to'qimasi qattiqligini aniqlash 143 nafar RA bilan kasallangan bemorlarda Achilles +S0I0 (Lunar, AQSh) ultratovushli suyak densitometri yordamida amalga oshirildi. Tekshirilgan guruhni tavsiflashda uning asosiy tasnifiy parametrlari (tizimlilik, faollik, bosqich, bo'g'imlarning funksional yetishmovchiligi, kechish tabiati), shuningdek, yosh, kasallik davomiyligi bo'yicha geterojenligi qayd etilishi lozim (jadval 1). Nazorat guruhi 30 yoshdan 79 yoshgacha bo'lgan amalda sog'lom 214 ayoldan iborat edi.

Jadval 1.



2-TOM, 7-SON

Densitometrik tekshiruvdan o'tgan RA bilan kasallangan bemorlarning klinik xususiyatlari (t±SO)

<i>Baholangan ko'rsatkichlar</i>	<i>Ko'rsatkichlar</i>
<i>Yoshi</i>	56,63±12,7
<i>Kasallikning davomoyligi, yillar</i>	8,77±7,1
<i>Premenapauzal bemorlar soni</i>	37
<i>Premenapauzal bemorlar o'rtacha yoshi, yillar</i>	42,1±8,26
<i>Postmenapauzal bemorlar soni</i>	106
<i>Postmenapauzal bemorlar o'rtacha yoshi, yillar</i>	61,0±10,19
<i>Menopauzaning davomiyligi, yillarda</i>	12,5±9,1
<i>Kasallikning faolligi:</i>	
– I daraja	43
– II daraja	55
– III daraja	45
<i>Rentgenologik darajalar:</i>	
– I daraja	11
– II daraja	43
– III daraja	53
– IV daraja	36
<i>Bo'g'imlarning funksional buzulishi:</i>	
– I daraja	37
– II daraja	79
– III daraja	27
<i>Tizimlilik (bor/yo'q)</i>	94/49

Birinchi bosqichda RA bilan kasallangan bemorlar 2 guruhga bo'lingan: past suyak massasi (SM) (T-ko'rsatkichi <-1) va normal SM (T-ko'rsatkichi > -1). Aniqlanishicha, RA bilan kasallangan bemorlarning 77% ida past SM, ya'ni osteopenik sindrom mavjud bo'lgan, nazorat guruhidagi sog'lom shaxslar bilan taqqoslaganda farqlar ishonchli edi (p<0,01) (jadval 2).

Jadval 2

RA bilan kasallangan bemorlarda osteopenik sindromning uchrash chastotasi

<i>Suyak zichligining holati(T-kretiriya bo'yicha)</i>	<i>RA bemorlar (n=143)</i>	<i>Nazoratdagi bemorlar(n=214)</i>	<i>P</i>
T<-180	77%	64%	<0,01



2-TOM, 7-SON

T>-180	23%	36%	
--------	-----	-----	--


Keyinchalik, RA bilan kasallangan bemorlar va sog'lom shaxslar guruhlaridagi belgilar bog'lanishining nisbatlarini solishtirish jadvali bo'yicha T-ko'rsatkichi -2,5 dan kam bo'lgan holatlarda baholandi, ya'ni OP diagnostikasi qo'yilgan. OP ham RA bilan kasallangan bemorlar orasida ishonchli ravishda ko'proq aniqlangan.

Jadval 3

<i>Suyak zichligining holati(T-kretiriya bo'yicha)</i>	<i>RA bemorlar (n=143)</i>	<i>Nazoratdagi bemorlar(n=214)</i>	<i>P</i>
T<-2,5	41%	20%	<0,001
T> -2,5	59%	80%	

Bunday ikki bosqichli densitometrik tekshiruv tahlili zarur, chunki RA bilan kasallangan bemorlarda SM holati haqida noto'g'ri tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Bu holatda, OP bo'lgan bemorlar ulushining ortishi osteopeniya bilan kasallangan bemorlar ulushining kamayishiga olib keladi va aksincha (1-rasm).

Shunday qilib, umuman olganda, RA bilan kasallangan bemorlar guruhi yosh bo'yicha taqqoslanadigan nazorat guruhiga nisbatan OP bo'lgan bemorlar ulushining 2 baravar ko'payishi bilan ajralib turadi (mos ravishda 41% va 20%). Faqat har to'rtinchi RA bilan kasallangan ayolda osteodensitometriya ma'lumotlariga ko'ra normal SM ko'rsatkichlari mavjud.



2-TOM, 7-SON

Ayollarda suyak to'qimasining rivojlanishidagi farqlarni hisobga olgan holda, reproduktiv yoshga qarab, biz RA bilan kasallangan ayollar guruhini post- va premenopauza davrlarida alohida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Premenopauza davridagi RA bilan kasallangan ayollar guruhi tashkil etildi, bu guruh 37 kishidan iborat bo'lib, ularning o'rtacha yoshi $42,1 \pm 8,26$ yoshni tashkil etdi. Nazorat guruhi sifatida 79 sog'lom ayoldan iborat guruh tanlandi, ularning o'rtacha yoshi $42,15 \pm 5,69$ yosh edi.

Jadval 4

Premenopauza davridagi RA bilan kasallangan ayollarda osteopenik sindrom uchrash chastotasi

Suyak zichligining holati(T-kretiriya buyicha)	RA bemorlar (n=37)	Nazoratdagi bemorlar(n=79)	P
T<-1	43,2%	24,1%	<0,05
T> -1	56,8%	75,9%	

Suyak massasi holatining taqqoslash tahlili yana bir bor premenopauza davridagi RA bilan kasallangan ayollar orasida osteopenik sindromning sezilarli ustunligini ko'rsatdi (jadval 4). OP aniqlangan bemorlar soni ham RA bilan kasallanganlar guruhida yuqori edi (jadval 5).

Jadval 5

Premenopauza davridagi RA bilan kasallangan ayollarda osteoporoz uchrash chastotasi

Suyak zichligining holati(T-kretiriya buyicha)	RA bemorlar (n=37)	Nazoratdagi bemorlar(n=79)	P
T<-2,5 80	8,1%	0%	<0,05
T> -2,5 80	91,9%	100%	

Postmenopauza davridagi RA bilan kasallangan ayollarda suyak massasi pasayishi (T<-1) 87,7% holatlarda aniqlangan, bu nazorat guruhiga nisbatan ishonchli ravishda yuqori bo'lib, nazorat guruhida osteopenik sindrom 71,7% holatlarda aniqlangan ($p < 0,05$) (jadval 6).

Jadval 6

Postmenopauza davridagi RA bilan kasallangan ayollarda osteopenik sindrom uchrash chastotasi



2-TOM, 7-SON

<i>Suyak zichligining holati(T-kretiriya buyicha)</i>	<i>RA bemorlar (n=37)</i>	<i>Nazoratdagi bemorlar(n=79)</i>	<i>P</i>
T<-2,5 80	8,1%	0%	<0,05
T> -2,5 80	91,9%	100%	

RA (revmatik artrit) bilan kasallangan, postmenopauza davrida bo'lgan ayollarda KM (T<-1 BI)ning pasayishi 87,7% hollarda aniqlangan, bu nazorat guruhi bilan solishtirganda ancha yuqori bo'lib, ularda osteopenik sindrom 71,7% hollarda kuzatilgan (p<0,05) (jadval 7).

Jadval 7

<i>Suyak zichligining holati(T-kretiriya bo'yicha)</i>	<i>RA bemorlar (n=106)</i>	<i>Nazoratdagi bemorlar(n=166)</i>	<i>P</i>
T<-1	87,7%	71,7%	<0,05
T> -1	12,3%	28,3%	

Postmenopauza davrida RA (revmatik artrit) bilan kasallangan ayollarda OP (osteoporoz) 54,7% hollarda suyak densitometriyasi asosida tashxislangan, nazorat guruhida esa faqat 25,9% hollarda (o'rtacha yosh 62±9,17 yil) (jadval 8).

Jadval 8


Postmenopauza davrida RA bilan kasallangan ayollarda osteoporozning uchrash tezligi

<i>Suyak zichligining holati(T-kretiriya buyicha)</i>	<i>RA bemorlar (n=106)</i>	<i>Nazoratdagi bemorlar(n=166)</i>	<i>P</i>
T<-2,5	54,7%	25,9%	<0,001
T> -2,5	45,3%	74,1%	

Shunday qilib, RA (revmatik artrit) bilan kasallangan ayollarda KM (suyak massasi) holati reproduktiv davrga qarab sezilarli farqlarni ko'rsatadi (2 rasm).



2-TOM, 7-SON



Shubhasiz, RA (revmatik artrit) bilan kasallangan ayollarda postmenopauza davrida KM (suyak massasi) yo'qolish tezligi sezilarli darajada oshadi, bu ko'rib chiqilgan bemorlarning yarmidan ko'pida osteoporoz rivojlanishiga olib keladi, holbuki yosh jihatidan o'xshash nazorat guruhida osteoporoz faqat 25,9% hollarda aniqlangan. Shu bilan birga, RA bilan kasallangan bemorlarning uchdan birida osteopeniya, premenopauza va postmenopauza guruhlarida kuzatilgan.

Shu munosabat bilan, biz RA bilan kasallangan barcha bemorlarga, jumladan, yoshligida kasallik rivojlangan bemorlarga suyak densitometriyasini o'tkazish zarurligini ta'kidlashni muhim deb bilamiz. Densitometrik ko'rsatkichlarning dinamik bahosi KM yo'qotish tezligini aniqlash bilan birga, osteopenik sindrom rivojlanishidan oldin osteoporozning ikkilamchi profilaktikasini amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wegener L. Ikki tomonlama tizza osteoartriti bo'lgan odamlarda statik va dinamik muvozanat javoblari / L. Wegener, C. Kisner, D. Nichols // J. Ortop. Sport fizikasi. U erda. - 1997. - 25-jild, N1. - B.13-18.
2. Vaynshteyn R.S. Trabekulyar kengligining qisqarishi va trabekulyar oraliqlarning ortishi qarish bilan suyaklarning yo'qolishiga yordam beradi / R.S. Vaynshteyn, M.S. Hutson // Suyak. - 1987. - 8-jild, N3. - B.137-142.
3. Westby M.D. Revmatoid artritli ayollarda prednizon I MD ni past dozada qabul qiladigan mashqlar dasturining samaradorligini baholash uchun randomize nazorat ostida sinov. Vestbi, J.P. Veyd, K.K. Rangno va boshqalar.// J. Rheumatol. - 2000. - 27-jild, N7. - P.1674-1680.
4. Westhovens R. Romatoid artritdagi tana tarkibi / R. Westhovens, J. Nijs, V. Taelman, va boshqalar.// Br. J. Revmatol. - 1997. - 36-jild, N4. . 444-448-bet.



2-TOM, 7-SON

5. Weyand C.M. Gigant hujayrali arteritni davolash: interleykin-6 kasallik faolligining biologik belgisi sifatida I C.M. Veyand, J.V. Fulbrayt, G.G. Hunder, va boshqalar. // *Artrit Rheum.* - 2000. - 43-jild, N5. - P.1041-1048.

6. Weyand C.M. Romatoid artritning patogenezi / C.M. Veyand, J.J. Goronzi // *Med. Klin. Shimoliy Am.* - 1997. - 81-jild, N1. - B.29-55.

7. Whalen R.T. Jismoniy faollikning tanaga ta'siri suyak zichligini tartibga solish I R.T. Whalen, D.R. Karter, C.R. Steele // *J. Biomech.* - 1988. - 21-jild, N10. - P.825-837.

8. Uitfild J.F. Paratiroid gormonining suyak qurish harakati: osteoporozni davolash uchun ta'sir / J.F. Uitfild, P. Morli, G.E. Uillik // *Giyohvand moddalarning qarishi.* - 1999. - jild. 15, N2. - 117-129-betlar.

9. Willing M. Suyak mineral zichligi va uning oq ayollardagi o'zgarishi: estrogen va vitamin D retseptorlari genotiplari va ularning o'zaro ta'siri / M. Willing, M. Sowers, D. Aron, va boshqalar // *J. Bone Miner. Res.* - 1998. - jild. 13, N4. - P.695-705.

10. Vluka A.E. To'g'ridan-to'g'ri standartlashtirilgan baholash bilan solishtirganda tibbiy yozuvlarni tekshirish orqali tizimli qizil yuguruk kasalligi faoliyatini baholash I A.E. Vluka, M.H. Liang, A.J. Partridge va boshqalar. // *Artrit Rheum.* - 1997. - Vol.40, N1.-P.57-61.

11. Yamamoto M. Gipokalsemiya kuchayadi va giperkalsemiya kalamush I M. Yamamoto, T. Igarashi, M. Muramatsu va boshq. // *J. Klinda paratiroid gormoni xabarchi RNKning barqaror holat darajasini pasaytiradi. Invest.* - 1989. - Vol.83, N3.-P.1053-1056.

12. Yang R.S. Kalamushlarda mahalliy prostaglandin E2 tomonidan suyak o'sishining oshishi I R.S. Yang, T.K. Liu, S.Y. Lin-Shiau // *Kalsif. Tissue Int.* - 1993. - 52-jild, N1. -B.57-61.

13. Yelin E. Romatoid artrit va osteoartritning ta'siri: revmatoid artrit va osteoartritli bemorlarning nazorat bilan solishtirganda faoliyati / E. Yelin, D. Lubeck, H. Holman, va boshqalar. // *J. Rheumatol.* - 1987. - 14-jild, N4.-P.710-717.

14. Yosh D. 10 yoshdan 26 yoshgacha bo'lgan ayollarda suyak massasining aniqlovchilari: egizak tadqiqot / D. Young, J.L. Xopper, C.A. Nowson, va boshqalar. // *J. Bone Miner. Res.* - 1995. - 10-jild, N4. - P.558-567.

15. Zanelli J.M. Mikrostruktura xususiyatlari va sinish vaqtida femur bo'ynidagi suyakning qayta tuzilishi / J.M. Zanelli, J.N. Bradbeer, S. Moyes, va boshqalar // *Suyak Miner.* - 1992. - jild. 17, qo'shimcha. 1. - B.280.

16. Zonneveld I.M. Psoriasis va revmatoid artrit uchun metotreksatni uzoq muddatli, past dozali davolashda metotreksat osteopatiyasi / I.M. Zonneveld, W.K. Bakker, P.F. Dijkstra va boshqalar // *Arch. Dermatol.* - 1996. - jild. 132, N2. - B. 184-187.



UZBEKISTAN'S STRATEGIC APPROACHES OF TO THE SCO

Rakhmatulla I.Nurimbetov, *PhD in politics*

Tashkent State University for Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: n.rakhmatulla1977@gmail.com

Abstract: The article reveals that Uzbekistan's strategy towards the Shanghai Cooperation Organization (SCO) always has been based on following principles: (1) ensuring national and regional security in Central Asia (2) preserving independence in foreign policy (3) balancing the interests of major powers in Central Asia (4) preventing hegemony of a single state or a group of states within the SCO (5) using the SCO to implement Uzbekistan's priorities in trade, economy and transport interconnectivity.

Key words: the Shanghai Cooperation Organization, strategy, Uzbekistan, foreign policy, middle power.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ШҲТГА НИСБАТАН СТРАТЕГИК ЁНДАШУВЛАРИ

Аннотация: Мақолада Ўзбекистоннинг Шанхай ҳамкорлик ташкилотига нисбатан стратегияси қўйидаги тамойилларга асосланганлиги қайд этилган: (1) миллий ва Марказий Осиёдаги минтақавий хавфсизликни таъминлаш (2) ташқи сиёсатда мустақилликни таъминлаш (3) Марказий Осиёда катта давлатлар манфаатларини мувозанатлаштириш (4) ШҲТда ягона давлатлар ёки давлатлар гуруҳининг устунлигига йўл қўймаслик (5) ШҲТ имкониятларидан Ўзбекистоннинг савдо, иқтисодиёт ва транспорт ўзаро боғлиқлигидаги устувор мақсадларини амалга оширишда фойдаланиш

Калит сўзлар: Шанхай ҳамкорлик ташкилоти, стратегия, Ўзбекистон, ташқи сиёсат, ўртамиёна давлат.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ УЗБЕКИСТАНА К ШОС

Аннотация: В статье выявлено, что стратегия Узбекистана в отношении Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) всегда основывалась на следующих принципах: (1) обеспечение национальной и региональной безопасности в Центральной Азии (2) сохранение независимости во внешней политике (3) балансирование интересов крупных держав в Центральной Азии (4) предотвращение



2-TOM, 7-SON

гегемонии одного государства или группы государств в рамках ШОС (5) использование возможностей ШОС для реализации приоритетов Узбекистана в области торговли, экономики и транспортных взаимосвязей.

Ключевые слова: Шанхайская организация сотрудничества, стратегия, Узбекистан, внешняя политика, средняя власть.

Introduction

The SCO emerged from the dialogue platform “Shanghai Five” formed in the late 1990s mainly on China's initiative to resolve border issues with the former USSR countries - Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Tajikistan. Its formation took place under the influence of significant changes in international relations at the end of the 20th century, including the end of the Cold War and the shift in the balance of power in the world, the emergence of a new geopolitical situation in Eurasia, and the formation of new regional centers of power, and the emergence of new security threats and challenges - terrorism, extremism, and separatist movements.

The SCO has developed fairly quickly as a relatively prominent regional player, primarily due to the consistent political and financial sponsorship of Beijing, as Chinese scholars argue the SCO was a “brainchild” of Chinese New Diplomacy (Guang, 2008).

But from geopolitical point of view, the SCO was primarily it's kind of a balancing act of concurrent and conflicting strategic interests of China and Russia as these two were seen as the engines pulling the young organization (Alyson, Bailes, Dunay, Guang, Troitskiy, 2007).

In this regard, it has achieved its primary mission as a tool for soft balancing against external hegemony (i.e. against the USA and the West in general) and the creator of its kind of new regionalism in Central Asia (Anadi, 2008).

The SCO's role in ensuring stability and security in Central Asia is assessed differently by researchers. While some call it the “guarantee of stability in Central Asia” (Zhao, 2006) others believe that it has failed to become an effective regional security organization and has therefore failed to demonstrate itself in crisis situations in the region (Saksena, 2014)



2-TOM, 7-SON

Another group of researchers argue that the SCO has contributed to failure of regionalism in Central Asia (i.e. without the participation of the external actors). Within so called “Second Great Game” in Central Asia, regional organizations dominated by China (i.e. the SCO) and Russia (i.e. EurAsEC and later the EAEU) have become strategic instruments of power projection, and they have prevented the successful development of a genuine Central Asian regionalism in Central Asia. (Krapohl, Vasileva-Dienes 2020)

Despite polar discussions, in Central Asia itself, there is a general believe that the SCO has contributed to ensure regional stability and promoting broader regional cooperation (Nurimbetov, 2021).

Core Principles of Uzbekistan's Strategy towards the SCO

The reshaping of the SCO's agenda is an unequivocal and objective process in light of its expansion and the new geopolitical dynamics in Eurasia. This inevitably impacts the strategic approaches of the member states of the Organization, especially those that were at the origins of its foundation.

One such country is Uzbekistan, whose positioning in the SCO has always been distinguished from the approaches of other Central Asian participants.

Uzbekistan's approaches to multilateral cooperation institutions, especially in the late 1990s and early 2000s, were characterized by a distinct positioning. During that period, the leadership of Uzbekistan was very cautious about joining any international organization, fearing it might affect the sovereignty of the state. Tashkent consistently kept its distance from organizations seeking integration, particularly in the security sphere (Laruelle, 2012). This adherence to the strategy has largely remained intact to this day. For instance, Uzbekistan is currently not a member of the Russia-led Collective Security Treaty Organization (CSTO) and participates in the activities of the Eurasian Economic Union (EAEU) only as an observer.

Returning to the security situation in Central Asia in the late 1990s and early 2000s, the picture was not very favorable. After the collapse of the former USSR, disintegration processes in the region intensified, and the Central Asian countries were still very weak, engaged in strengthening their statehood, fighting for the preservation of sovereignty and territorial integrity. Their ability to ensure stability and security in the region by military means was limited.



2-TOM, 7-SON

In such conditions, Uzbekistan had very few strategic options (unlike other founding countries of the SCO, Uzbekistan did not participate in the "Shanghai Five" due to the fact that it does not share a common border with China). Against the backdrop of the emerging danger in Afghanistan in the late 1990s with the rise to power of the radical Taliban movement, it became clear that the CSTO did not have the full potential to ensure security in Central Asia (In its more than 30 years history the CSTO conducted only one weeklong operation in Kazakhstan (2022) with a small number of troops during the same period, (Stratievski, 2023). Moreover, as previously mentioned, Uzbekistan's leadership considered avoiding foreign influence in security matters a top priority. However, the Shanghai Cooperation Organization SCO was not an organization controlled by a single major state like the CSTO. In Tashkent's view, China and Russia were major powers that balanced each other within the SCO (Huasheng, 2004) On the one hand, the intention to pursue an independent foreign policy while avoiding the influence of major countries and, on the other hand, the desire to maintain a geopolitical balance in Central Asia were strategic goal of Uzbekistan's foreign policy at that time. It is highly likely that Tashkent perceived the SCO primarily in this context. In this regard, ensuring national and regional security and independence in foreign policy activities formed *the main principle of Uzbekistan's strategy towards the SCO*.

In our view, the *second important conceptual basis* for Tashkent was the desire to maintain a strategic balance of competing interests of the leading centers of power in Central Asia through the SCO, and to prevent any major country from establishing complete control over the region. This positioning is often characterized as the pursuit of a multi-vector or equidistant foreign policy.

International observers note that this approach of Uzbekistan manifested itself in its tactical actions within the SCO from the early years. In some cases, they seemed contradictory. For example, the start of the peacekeeping operation by coalition forces led by the United States in Afghanistan in December 2001 seriously changed the geopolitical situation in the region. This led to the formation of a strategic partnership between Tashkent and Washington, although for a short period. Some experts viewed this as an attempt by Uzbekistan to strengthen its strategic partnership with the United States and balance the influence of Russia and China in the region, thereby enhancing its own role in the region (Fumagalli, 2007).

The principle of ensuring a balance between major centers of power in Tashkent's strategy towards the SCO was once again confirmed during the "short cooling" of relations



2-TOM, 7-SON

with the West after the Andijan events of 2005 (Aris, 2006). In the same year, at the SCO summit in Astana (Kazakhstan), Uzbekistan included in the agenda the issue of setting deadlines for the withdrawal of US military bases from Central Asia. This proposal was supported by all members of the organization. Thus, it can be emphasized that the SCO, with its large powers like Russia and China, allowed the medium and small members of the organization from Central Asia to balance the influence between competing geopolitical poles.

The Andijan events themselves was classified by some Western scholars as a “turning point” in the SCO dynamics as the Astana Summit supported the principle of state sovereignty, underlying the Western models of the governance (Aris, 2006).

In our view, *the third important principle of Uzbekistan in relation to the SCO was to prevent any member state from becoming hegemonic in the organization.*

Uzbekistan, as one of the founding states of the SCO, has always advocated for strict adherence to the principles of the “Shanghai Spirit” (mutual trust, mutual benefit, equality, consultation, respect for cultural diversity, and pursuit of common development) by all Parties, which define the conceptual foundations of the Organization, as well as for decision-making based on consensus. According to available information, the inclusion of politically important principles such as openness, non-alignment, and non-targeting against third countries and international organizations in the SCO Charter was initiated by Uzbekistan.

It should be noted that this principle continues to maintain its continuity for Uzbek diplomacy to this day. President Shavkat Mirziyoyev, who has held office since 2017, consistently states that the further strengthening of the role and prestige of the SCO will still directly depend on the commitment of all member states to the aforementioned principles of the "Shanghai Spirit". The leader of Uzbekistan clearly demonstrated this position during the country's chairmanship in the SCO in 2021-2022. Firstly, in an article by President Shavkat Mirziyoyev, published in about 30 leading foreign publications on September 12, 2022, titled "The Samarkand Summit of the Shanghai Cooperation Organization: Dialogue and Cooperation in an Interdependent World", the following is noted: "The key to the SCO's international legal appeal is its non-aligned status, openness, non-targeting against third countries or international organizations, equality, and respect for the sovereignty of all participants, non-interference in internal affairs, prevention of political confrontation and competitive rivalry" (CGTN, 2022).



2-TOM, 7-SON

A few days later, in his speech at the Samarkand summit on September 16, 2022, President Shavkat Mirziyoyev, continuing this position, once again highlighted that maintaining the non-aligned status of the Organization and its openness is foremost important.

Strict adherence to the principles of the “Shanghai Spirit” and decision-making based on consensus, in turn, serves as an important prerequisite for Uzbekistan's efforts *to prevent the transformation of the organization into a military or military-political bloc*. In our opinion, this is the *fourth principle* of Uzbekistan's strategy towards the SCO.

Many researchers believe that Russia seeks to transform the SCO into a military-political alliance and, on this basis, further strengthen its influence in Central Asia and use the organization in its confrontation with the West (Aydintaşbaş, Dumoulin, Geranmayeh, Oertel, 2024). Uzbekistan, along with other countries in the region, always advocates for maintaining the non-aligned status of the SCO (Schmitz, 2022). India and Central Asian countries hold the same position. China has never openly expressed a clear opinion on the possibility of transforming the SCO into a military bloc. For Beijing, it is more strategically important to have the role of the organization as a conductor of its concepts for building a new type of international relations rather than using it as a tool for military-political confrontation with the United States (Huasheng, 2022).

The above principles continue to shape the basis of Uzbekistan's cooperation with the SCO. Their practical implementation is aimed not only at realizing the national interests of the country and the priority goals and objectives of foreign policy strategy. They also serve to maintain balance within the SCO, prevent deviations from the fundamental principles enshrined in the Charter, including attempts to turn it into a political or military bloc.

Conclusion

In the new feature the SCO will face more changes under the influence of both internal and external factors. It is currently entering a new stage - the stage of transformation. The collective response of the member states to this was the decision adopted at the Samarkand summit in 2022, which provides for the improvement of the SCO's activities. Draft paper of reform agenda of the Organization should have been prepared under the current Kazakhstan Chairmanship in the SCO (Bellaby, 2023).

How the SCO will develop in the future? Will Central Asia remain its “geographic core” or the previous importance of the region for the SCO will decrease? What are the



2-TOM, 7-SON

approaches of Central Asian countries and Uzbekistan in particular to the global and regional role of the SCO? Will the organization become a victim of the “great power game and competition”, or will it still be able to turn into a strong multilateral institution capable of participating in the formation of a multipolar world as some member states hope?

The answers to these serious questions remain open. The ongoing expansion of the SCO may further increase uncertainty.

This situation creates certain opportunities for Uzbekistan, which is considered one of the central country of Central Asia. It can implement skillful middle power diplomacy aimed at strengthening multilateral cooperation and legitimacy within the SCO, preventing and resolving conflicts, and ensuring geopolitical balance.

LITERATURE

Guang P.A. (2008). A new diplomatic model: a Chinese Perspective on the Shanghai Cooperation Organization. *Washington Journal of Modern China*. 2008, 9 (1), 55-72.

A.Bailes, P.Dunay, P.Guang, M.Troitskiy (2007). The Shanghai Cooperation Organization. *Stockholm International Peace Research Institute Policy Paper No. 17* // <https://www.files.ethz.ch/isn/31817/Polycypaper17.pdf>

Anadi Anadi (2024). New Regionalism and Norm Creation: A Case of Shanghai Cooperation Organization. *Journal of Strategic Security* 17 (1), 100-111. DOI: <https://doi.org/10.5038/1944-0472.17.1.2184>

Zhao Huasheng (2006). The Shanghai Cooperation Organization. *World Affairs: The Journal of International Issues* 10 (3),128-139.

Aid R.Saksena (2014, July 25). The Shanghai Cooperation Organization and Central Asian Security. *The Diplomat*, <https://thediplomat.com/2014/07/the-shanghai-cooperation-organization-and-central-asian-security/>

Sebastian Krapohl, Alexandra Vasileva-Dienes (2020), The region that isn't: China, Russia and the failure of regional integration in Central Asia. *Asia Europe Journal* 18, 347–366. <https://doi.org/10.1007/s10308-019-00548-0>



2-TOM, 7-SON

Rakhmatulla Nurimbetov, (2021). The SCO as a factor in Strengthening Stability in Central Asia: a View from Uzbekistan. *Contemporary International Relations* 31 (4), 37-42

Marlene Laruelle, (2012). Regional Organizations in Central Asia: Patterns of Interaction, Dilemmas of Efficiency. DOI:10.13140/RG.2.2.15202.94409

Dmitri Stratievski, (2023). WHY THE CSTO failed to become „Russia’s NATO // <https://library.fes.de/pdf-files/international/20741.pdf>

Zhao Huasheng, (2004). Security Building in Central Asia and the Shanghai Cooperation Organization. Slavic Eurasia’s Integration Into the World Economy and Community. *Sapporo: Slavic Research Center, Hokkaido* // https://src-h.slav.hokudai.ac.jp/coe21/publish/no2_ses/4-2_Zhao.pdf

Matteo Fumagalli, (2007). Alignments and Realignments in Central Asia: The Rationale and Implications of Uzbekistan's Rapprochement with Russia // *International Political Science Review* 28(3), 253-271.



2-TOM, 7-SON

JISMONIY MASHG'ULOTLARNING YURAK VA QON TOMIR
TIZIMINING ME'YORIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Yunus Xojabaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy mashg'ulotlarning yurak va qon tomir tizimining me'yoriy faoliyatidagi ahamiyati, uning fiziologik asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, o'smir yoshlar salomatligini valeologik jihatdan baholash uchun olib borilayotgan tadqiqotlarning aynan yurak-qon tomir tizimi faoliyatini baholash bo'yicha o'tkazilgan tajriba usullari va olingan natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy madaniyat, jismoniy mashq, yurak va qon tomirlar tizimi, o'smir yosh, valeologik tahlil, sog'lom turmush tarzi, sport.

Аннотация: В статье освещается значение физической активности в нормальной деятельности сердца и сосудистой системы, ее физиологические основы. Также приводятся экспериментальные методы и полученные результаты проводимых исследований по оценке именно деятельности сердечно-сосудистой системы для валеологической оценки здоровья подростков.

Ключевые слова: физическая культура, физические упражнения, сердечно-сосудистая система, подростковый возраст, валеологический анализ, здоровый образ жизни, спорт.

Annotation: the article highlights the importance of physical training in the normative activity of the heart and vascular system, its physiological basis. Also presented are the experimental methods and the results obtained to assess the functioning of the cardiovascular system precisely from the studies carried out to valeologically assess the health of adolescent youth.

Keywords: Physical Culture, exercise, heart and vascular system, adolescent age, valeological analysis, healthy lifestyle, sports.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari orasida yuzaga kelayotgan muammolardan biri kishilar salomatligida yuzaga kelayotgan bir qator salbiy o'zgarishlar va ularning oqibati tufayli yuzaga kelayotgan kasalliklarni oldini olish va davolashdir. Ma'lumki, sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda, organizmni chiniqtirishda jismoniy mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanish ijobiy ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tomonidan



2-TOM, 7-SON

yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida xalqimizning farovon va sog'lom hayot kechirishlarini ta'minlash ko'zda tutilgan. Jumladan, pedagog va olimlar tomonidan Davlatimiz rahnamoligi ostida jismoniy tarbiya tizimi va sportni rivojlantirish, salomatlik va jismoniy tayyorgarlikni yanada yaxshilash borasida doimiy ravishda izlanishlar va samarali ishlar olib borilmoqda.

Hozirga kelib, yoshlar orasida sport turlarining ommalashib borayotganligi ijobiy ahamiyatga ega. Xususan, inson organizmining jismoniy mehnat qilish qobiliyati ichki a'zolar va ayniqsa yurak va qon tomir tizimining funksional holatiga bog'liqdir. To'g'ri tashkil qilingan jismoniy mashqlar organizmning spetsifik va nospetsifik chidamliligini hamda uning funksional imkoniyatlarini oshirishga va ularni to'laroq namoyon etishga, yosh o'tishi bilan bog'liq morfo funksional o'zgarishlar yuzaga kelishini kechiktirishga va shu orqali salomatlikni yaxshilash va uni saqlab qolishga xizmat qiladi. Kishilarnig jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanishi jamiyatimizda nafaqat katta ijtimoiy, balki gigiyenik sog'lomlashtiruvchi ahamiyatga ega. Muntazam ravishda amalga oshirib boriladigan jismoniy faollik organizmda parasimpatik tizim tonusini yaxshilaydi. Bunga bog'liq holda tinch holatda gemodinamika darajasi pasayadi, miokardning oziqlanish sharoiti yaxshilanadi, yuklamalarda to'laroq mobilizatsiyalanish va tiklanish ta'minlanadi. Shunga ko'ra, muntazam jismoniy faollik yurak va qon tomir tizimi kasalliklarini oldini olish va shunday kasalliklar yuzaga kelganda ularni kompensatsiyalash uchun muhim shart bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy faoliyat elektrolitlar va boshqa moddalar almashinuvini meyorlashtirib, yurak muskulini to'satdan yuzaga keladigan stresslarning nojo'ya ta'siridan himoya qiladi va unda koronarogen bo'lmagan metabolik nekroz rivojlanish ehtimolini kamaytiradi.

Insonning hayot tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator omillar uning yurak va qon tomir tizimi holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida jismoniy faollik darajasi ko'p vaqtlar ichida olimlar e'tiborini tortib kelgan. Bu borada qator ilmiy tekshirishlar o'tkazilgan bo'lib, aholi orasida yurak va qon tomir kasalliklari tarqalganligining jismoniy faollik darajasi bilan bog'liqligi hamda jismoniy faol odamlarda bu kasalliklar yengilroq o'tib, o'lim va nogironlik foizi ancha past bo'ishi aniqlangan. Masalan, statistik malumotlarga ko'ra jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilar orasida ishemik kasalligining tarqalganligi 7,02% tashkil qilsa, kam harakatli ish bilan shug'ullanadiganlarda bu ko'rsatkich 10,07% ga yetadi. Jismoniy yuklamalar organizm uchun rag'batlantiruvchi ta'sirlarning muhim va eng katta manbasi bo'lib xizmat qilib, moddalar almashinuvi va boshqa muhim funksional tizimlar meyoriy rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun katta ahamiyatga ega. Jismoniy mashqlarning a'zo va tizimlarga



2-TOM, 7-SON

rag'batlantiruvchi ta'siri organizmning involyutsiyasi va vaqtdan oldin qarishga qarshi kurashish, yosh organizm yaxshi o'sib aqliy va jismoniy rivojlanishi meyorda bo'lishi, uzoq umr ko'rish va umuman inson sog'ligini saqlash uchun samarali foydalanilishi mumkin. Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullanish teskari rivojlanish jarayonlari avj olishini oldini olish, kompensator jarayonlarni rag'batlantirish (so'nayotgan funksiyalarni tiklash) va shu yo'l bilan organizmning morfo-funksional holatini yaxshilashga olib keladi.

Yosh bilan bog'liq moddalar almashinuvidagi o'zgarishlardan biri bu organizmdagi kalsiyning qayta taqsimlanishi bo'lib, bunda sklerotik jarayonlar yuzaga keladi va natijada bug'imlarning funksional imkoniyatlari va ularning qon bilan ta'minlanishida salbiy o'zgarishlar tobora ko'proq o'rin oladi.

Tadqiqotlarimizda o'smir yoshlarning jismoniy ish faolligini baholash orqali ularning yurak qon-tomir tizimi va nafas olish tizimining faoliyati qay darajada ekanligini adabiyotlarda keltirilgan usullar bilan o'rganildi. Xususan, Garvard step-test (Гарвардский степ-тест) usuli yordamida tekshiriluvchilarda o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, o'g'il bolalarning 33,3 %ida yurak qon-tomir tizimi va nafas olish tizimining faoliyati yuqori, 55,5 % o'rtacha, 11,2 %ida past, qiz bolalarning esa 46,1 % ida o'rtacha, 53,9 % ida past ekanligi aniqlandi.

14 yoshli o'g'il va qiz bolalarda olingan Garvard step-test natijalari.

Tekshiriluvchilar	Min-max	y	M±m
O'g'il bolalar	68-104	10,9	82±2,64
Qiz bolalar	72-104	11,0	87,5±2,19

Aytib o'tish kerakki, turli sport bilan (karate, qo'l jangi, voleybol, kurash, badiiy gimnastika, stol tennisi) shug'ullanadigan respondentlarda olingan natijaga ko'ra ularning yurak qon-tomir 535 tizimi va nafas olish tizimining faoliyati jismoniy mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanmaydigan bolalarga nisbatan yaxshi ekanligi aniqlandi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish kerakki, jismoniy faol hayot tarziga o'tishda yurak va qon tomir tizimi va almashinuv jarayonlarida ijobiy siljishlar kuzatiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmaydigan kishilarda 30 yoshdan keyin katta yuklamalarga bardosh berish imkoniyatlari keskin kamayib ketadi, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanuvchilarda esa bunday imkoniyatlar 45 yoshgacha va hatto undan keyin ham saqlanib qoladi. Ba'zi hollarda 50-60 yoshli jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanadigan erkak kishilarda ulardan 20-30 yosh kichik shug'ullanmaydigan kishilardagi ko'rsatkichlar qayd etlagn. Shunga ko'ra kun tartibida jismoniy yuklamalarning muntazam o'rin olishi odam rganizmining faqatgina bardoshlilikini belgilab qolmasdan,



2-TOM, 7-SON

balki yurak va qon tomir tizimining qator kasalliklari va almashinuv jarayonlaridagi nuqsonlar rivojlanishini oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Граевская Н.Д. Влияние спорта на сердечно-сосудистую систему. - М.: Медицина, 1975. - 279 с.

2. Рыжиков Г.В., Величкина С.В., Пеливанов В.А. Динамика изменения ЧСС у студентов и экзаменаторов во время экзаменов. Физиология человека. Том 3, № 5, 1977. стр. 891.

3. Азимов И.Г., Ҳамроқулов А.К. Собитов Ш.С. умумий ва спорт физиологиядан амалий машғулотлар.-Т., “Ўқитувчи”, 1992.

4. Борисова Т. С., Лабодаева. Ж. П. Гигиеническая оценка состояния здоровья детей и подростков Минск БГМУ, 2017. 49 с

5. Физическое развитие детей и подростков Российской Федерации. Сборник материалов. Вып. VI / Под ред. Баранова А.А., Кучмы В.Р. — М.: ПедиатрЪ; 2013. — 192 с. [Fizicheskoe razvitie detei i podrostkov Rossiiskoi Federatsii. Sbornik materialov. 4th ed.Ed by Baranov A.A., Kuchma V.R. Moscow: Pediatr; 2013. 192 p. (In Russ).]



2-TOM, 7-SON

TALABA YOSHLARNING JISMONIY TARBIYASI
ZAMONAVIY SHAROITLAR

Yunus Xojabaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar talabalarning jismoniy tarbiyasi va zamonaviy yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan. Talabalar, jismoniy tarbiya, modulli o'qitish, ixtisoslashuv, jismoniy faollik.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy fazilatlari, jismoniy mashqlar sog'liq, jismoniy rivojlanish, vosita faoliyati.

Аннотация. Сегодня многие исследования посвящены проблемам физического воспитания учащихся и формирования здорового образа жизни современной молодежи. Студенты, физическое воспитание, модульное обучение, специализация, физическая активность.

Ключевые слова: физическая культура, физические качества, физические упражнения, здоровье, физическое развитие, двигательная активность.

Annotation. Today, many studies are devoted to the problems of physical education of students and the formation of a healthy lifestyle of modern youth. Students, physical education, modular training, specialization, physical activity.

Keywords: physical education, physical qualities, physical activity health, physical development, motor activity.

Kirish. Hozirgi vaqtda ko'plab ilmiy tadqiqotlar talabalar yoshlarini jismoniy tarbiyalashning dolzarb muammolarini hal qilishga bag'ishlangan. Eng muhim muammolardan biri zamonaviy yoshlarning jismoniy salomatligi holati. Maxsus monitoringlarga ko'ra, yoshlarning atigi 10 foizi jismoniy rivojlanish va sog'liqning normal darajasiga yaqin. Yurak-qon tomir va mushak-skelet tizimining kasalliklarining keskin o'sishi qayd etildi, bu asosan yoshlarning motor faolligining etarli emasligi bilan bog'liq. Umuman olganda, 2-3 xil kasallik tashxisi qo'yilgan yoshlarning taxminan 50 foizi oliy o'quv yurtlariga keladi va bitiruvchilarning atigi 15 foizini shartli ravishda sog'lom odamlar deb hisoblash mumkin. Yana bir muammo-oliy maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya tizimida ta'lim texnologiyalari samaradorligini pasaytirish. Ta'lim muassasalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar talabalarning sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligining keskin yomonlashuvining yoqimsiz rasmini ko'rsatadi, ular keyingi mehnat faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan stresslarga. Ta'kidlanishicha, bugungi kunda jismoniy tarbiya kafedralari



2-TOM, 7-SON

o'qituvchilari talabalarni maxsus bilimlar, ko'nikmalar, vakolatlar, sog'lom turmush tarzi normalarini shakllantirish, ularning sog'lig'i darajasini mustahkamlash va h. k. larni shakllantirish zarurligiga emas, balki faqat fan bo'yicha kreditni topshirishga yo'naltirmoqdalar., shuning uchun universitetlarda jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish tuzilishi va usullarida sifat jihatidan vaziyatni tuzatish. Yuqorida aytilganlarning barchasi ushbu ishning dolzarbligini shakllantiradi.

Materiallar va usullar. Talabalarning jismoniy tarbiyasi o'quv jarayoniga sifatli va tarkibiy o'zgarishlarni joriy etish usullaridan biri bu jismoniy fazilatlarni rivojlantirish darajasini oshirish, sog'lig'ini mustahkamlash, kelgusi mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish maqsadida o'tkaziladigan darslarning shakli va uslubini o'zgartirishdir. "Jismoniy tarbiya" fanidan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning bunday (o'zgartirilgan) zamonaviy shakllariga quyidagilar kiradi: tanlangan sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar (sport ixtisosliklari), talabalarni modulli o'qitish, individual dasturlar. Talabalarning jismoniy fazilatlari va funktsional tayyorgarligi rivojlanish darajasini oshirish nuqtai nazaridan ushbu shakllar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish samaradorligini qiyosiy tahlil qilish tadqiqotning ilmiy yangiligini shakllantiradi.

Ixtisosliklar shaklida talabalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish metodologiyasining asosi quyidagilardan iborat sport turlari yondashuvi-o'quv jarayoniga moslashtirilgan va individual motor ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga, sport madaniyatini shakllantirishga, talabalik yillarida yoshlarning jismoniy va maxsus tayyorgarligini oshirishga hissa qo'shadigan sportchilarni tayyorlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda bir yoki bir nechta sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar asosida universitetda talabalarni jismoniy tarbiyalashning pedagogik yo'nalishi. Bu sport texnologiyalarini talabalarning jismoniy tarbiya jarayoniga aylantirishni o'z ichiga oladi.

Modulli o'quv dasturlari talabalarning asosiy motorli ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga asoslanadi: yurish, chang'i sporti, suzish va boshqalar. talabalar bilan mashg'ulotlar turli xil, ketma-ket ketma-ket modullarda o'tkaziladi. Odatda, 1 semestrda: yengil atletika, gimnastika, sport o'yinlari (futbol), 2 semestrda: yengil atletika, suzish, sport o'yinlari (voleybol, basketbol) mavjud. Modulli o'quv tizimiga o'quv mashg'ulotlari bloklari (har bir blok uchun 18 ta dars soni), nazariy, amaliy mashg'ulotlar metodikasi va nazorat va texnik standartlarni majburiy qabul qilish kiradi. Bugungi kunda ushbu dars shakli mamlakatimizning aksariyat oliy o'quv yurtlarida ustunlik qilmoqda.

Jismoniy tarbiya amaliyoti shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar samaradorligi faqat jismoniy mashqlar insonning sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligi darajasini hisobga olgan holda individual ravishda dozalangan taqdirdagina yuqori bo'ladi. Talabalarning individual



2-TOM, 7-SON

jismoniy tarbiya dasturlari sog'lig'i sababli asosiy va tayyorgarlik guruhiga mansub bo'lgan, ammo biron bir sababga ko'ra (kasalliklardan tiklanish, jismoniy rivojlanish darajasining etarli emasligi va boshqalar) jismoniy faoliyatni to'liq bajara olmaydigan yoshlar uchun mo'ljallangan. Ushbu dasturlar talabalarning sog'lig'i darajasini majburiy nazorat qiladigan yoshlarni intensiv jismoniy va funktsional tayyorlash usullariga asoslangan. Shunday qilib, jismoniy mashqlarning umumiy hajmi va intensivligi o'qituvchining subektiv fikriga bog'liq emas, balki o'quvchilarning funktsional holati bilan chegaralanadi. Yuqorida aytib o'tilganlarni hisobga olgan holda, maqola mualliflari universitetlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining turli shakllariga qatnaydigan yoshlarning jismoniy va funktsional tayyorgarligi darajasi sifatini aniqlaydigan tadqiqotlar o'tkazishga qaror qilishdi. Tadqiqotning maqsadi jismoniy fazilatlarni oshirish nuqtai nazaridan darslarni o'tkazish shaklini eng samarali aniqlash edi. Tadqiqotlar Samarqand davlat universitetida o'tkazildi.

A. Navoiy (sport ixtisosliklari) va Samarqand tibbiyot instituti (modulli o'qitish va individual dasturlar). Tadqiqotlarda 1 ta o'quv kursining 300 nafar yosh talabalari (har bir ta'lim shaklidan tanlab 100 kishidan) ishtirok etdi. O'rganilayotgan talabalarni tanlash kompyuter dasturlari yordamida o'zboshimchalik bilan amalga oshirildi.

“Jismoniy tarbiya va sport” fanidan o'quv jarayonining zamonaviy shakllarining samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borishda mualliflar talabalarning jismoniy va funktsional holatini baholash uchun keng qo'llaniladigan nazorat sinovlari va testlar to'plamidan foydalanganlar. O'rganilgan: kuchning rivojlanish darajasi (barda tortishish soni), tezlikning rivojlanish darajasi (100 m masofani bosib o'tish vaqti), moslashuvchanlikning rivojlanish darajasi (o'tirgan holatda oldinga egilish), funktsional tayyorlik (3000 m masofani bosib o'tish vaqti, o'tirish bilan sinov). Ushbu testlarning natijalari insonning jismoniy holatini to'liq va aniq ko'rsatib beradi deb ishoniladi. Alohida-alohida, siz Squat testi haqida gapirishingiz kerak. Ushbu test pedagogik kuzatuvlar va sport tibbiyoti amaliyotida sub'ektlarning funktsional tayyorgarligi darajasini baholash uchun keng tarqalgan. Sinovning mohiyati eng qisqa vaqt ichida 30 ta o'tirishni bajarishdir. Sinov oson bajarilishi uchun qulaydir va uni amalga oshirish uchun qimmatbaho uskunalar talab qilinmaydi, masalan, velosiped ergometri yoki tredban – yugurish uchun harakatlanuvchi yo'l. Buni amalga oshirish uchun faqat dam olish paytida va jismoniy faoliyatdan keyin puls va qon bosimini o'lchash kerak. Aniqroq hisob – kitoblar uchun mualliflar professor A. I. Zavyalovning o'rganilayotgan talabalarda sistolik va daqiqali qon hajmini hisoblash metodologiyasidan foydalanganlar. Natijalar. Tadqiqotlar davomida talabalarning jismoniy fazilatlari va funktsional tayyorgarligi rivojlanish darajasining o'sishi to'g'risida



2-TOM, 7-SON

ma'lumotlar olindi. Talabalar sport ixtisosligi dasturlari va modulli o'quv shakli talabalari (talabaning t-mezoniga ko'ra) o'zlarining tayyorgarlik darajasini biroz oshirdilar. Individual dasturlar bilan shug'ullanadigan talabalar uchun funktsional tayyorgarlik darajasi (talabaning mezoniga ko'ra) statistik jihatdan ishonchli tarzda oshdi. To'liq tadqiqot natijalari jadvalda keltirilgan

Talabalarda funktsional tayyorgarlikning jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasi ta'limning turli shakllari

Ta'lim shakllari	Jismoniy sifatlar	Boshlanish tajriba	Tugatish tajriba	Ishonchlilik farqlar
Sport mutaxassisliklar	kuch	10 + 3	14 + 3	ishonchsiz
	tezlik	14 + 4	12 + 2	ishonchsiz
	moslashuvchanlik	7 + 2	10 + 4	ishonchsiz
	chidamlilik	15 + 4	13 + 2	ishonchsiz
	funktsional tayyorlik	5,3±0,6	5,1±0,4	ishonchsiz
Modulli trening	kuch	8 + 4	12 + 3	ishonchsiz
	tezlik	16 + 3	13 + 2	ishonchsiz
	moslashuvchanlik	8 + 3	11 + 2	ishonchsiz
	chidamlilik	15 + 2	14 + 2	ishonchsiz
	funktsional tayyorlik	5,5±0,3	5,2±0,5	ishonchsiz
Shaxsiy dasturlar trening	kuch	7 + 2	10 + 2	ishonchsiz
	tezlik	17 + 4	14 + 3	ishonchsiz
	moslashuvchanlik	6 + 3	10 + 3	ishonchsiz
	chidamlilik	18 + 2	14 + 3	ishonchsiz
	funktsional tayyorlik	5,6±0,4	4,8±0,2	P <0,01

Natijalarni muhokama qilish. Mualliflar tomonidan olingan ma'lumotlar jismoniy tarbiya kafedralari o'qituvchilari tomonidan ular uchun eng mos (iqlim, moddiy-texnik va boshqa tomonlardan) talabalar bilan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish shaklini tanlash imkoniyatini ko'rsatadi. Jismoniy fazilatlar va motor qobiliyatlarini rivojlantirish darajasining o'sishi o'rganilayotgan ta'limning barcha shakllari talabalari tomonidan



2-TOM, 7-SON

namoyish etiladi. Biroq, tadqiqotlarga ko'ra, sezilarli o'sish yo'q. Mualliflarning fikriga ko'ra, bu haqiqatni modulli darslarga qatnaydigan talabalar ko'p vaqtlarini o'rganishga sarflashlari bilan izohlash mumkin jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga zarar etkazadigan texnik harakatlar va texnikalar. Sport ixtisosliklari ko'rinishidagi darslarga qatnaydigan talabalar, aksincha, vaqtni biron bir sifatni rivojlantirishga qaratadilar (suzuvchi – chidamlilik, sportchilar–tezlik va boshqalar). Rivojlanishiga etarlicha e'tibor berilmagan boshqa jismoniy fazilatlarning ko'rsatkichlarini tanlab aniqlashda o'sish kichik bo'lishi mumkinligini aniqlash mumkin. Jismoniy faoliyatga funktsional tayyorlik darajasining oshishi ta'limning barcha shakllari talabalarida ham qayd etilgan, ammo individual dasturlar bilan shug'ullanadigan talabalarda talabaning t-testi ($p < 0,01$) bo'yicha statistik jihatdan ishonchli o'sish qayd etilgan.

Xulosalar. Mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar universitet talabalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishning turli tarkibiy shakllarining samaradorligini ko'rsatadi:

1. Talabalarining jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda darslarni o'tkazishning har qanday tarkibiy shaklining boshqalarga nisbatan ishonchli muhim afzalligi aniqlanmagan. Jismoniy fazilatlarning rivojlanish darajasining o'sishi turli sport mutaxassisliklari dasturlari bilan shug'ullanadigan va modulli o'quv dasturlari bilan shug'ullanadigan talabalar va individual dasturlar bilan shug'ullanadigan talabalar tomonidan namoyish etiladi. Binobarin, jismoniy tarbiya kafedralari o'qituvchilari talabalarining jismoniy fazilatlarini samarali rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning turli shakllaridan foydalanishlari yoki ularni birlashtirishlari mumkin.

2. O'rganilayotgan barcha talabalar funktsional tayyorgarlik darajasining oshishini ham namoyish etadilar, ammo individual ta'lim shakli talabalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Agar ixtisoslik dasturlari va modullari bilan shug'ullanadigan talabalar uchun farqlar noto'g'ri bo'lsa, unda individual shakldagi talabalar uchun ishonchlilik $p < 0,01$ ni tashkil etdi. Shuning uchun samaradorlik nuqtai nazaridan individual ta'lim shakli talabalarining funktsional tayyorgarligi darajasini oshirish uchun eng mos keladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni istardimki, jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning eng istiqbolli shakli bu yoshlarning jismoniy va funktsional holati darajasini hisobga olgan holda o'quv jarayonini individuallashtirishdir. Ushbu shakl (ixtisoslashuv va modulli o'qitishdan farqli o'laroq) turli darajadagi jismoniy va texnik tayyorgarlikka ega talabalarni, shuningdek maxsus tibbiy guruhlar talabalarini amaliy mashg'ulotlarga jalb qilishga imkon beradi.



2-TOM, 7-SON

Adabiyot

1. Васенков, Н.В. Динамика состояния физического здоровья и физической подготовленности студентов / Н.В. Васенков // Теория и практика физической культуры. – 2005. – № 5. – С. 91 – 92.

2. Дорошенко, С.А. Спортивно-видовой подход – путь к повышению эффективности процесса физического воспитания в вузе / С.А. Дорошенко // Журнал Сибирского Федерального Университета. – 2011. – № 9. – Т. 4. – С. 1334 – 1353.

3. Завьялов, А.И. Физическое воспитание студенческой молодежи / А.И. Завьялов, Д.Г. Миндиашвили. – Красноярск, 1996.

4. Зуев, В.Н. Нормативно-правовые акты в регуляции управления отечественной сферой физической культуры и спорта / В.Н. Зуев // Теория и практика физической культуры. – 2002. – № 7. – С.15 – 17.

5. Николаев, В.С. Оптимизация оздоровительной тренировки студенческой молодежи / В.С. Николаев // Здоровье молодежи – будущее нации: сб. ст. Всеросс. науч.-практ. конф. с межд. участием. Морд. гос. пед. ун-т. – Саранск, 2008. – С. 185 – 189.



2-TOM, 7-SON

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOORDINATSION
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Yunus Xojabaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus mashqlar orqali maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiyuslubiy jixatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy sifatlar, koordinatsion qobiliyatlar, metod, sog'lig'ini muhofaza qilish, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish.

Аннотация. В данной статье раскрыты научно-методические аспекты развития координационных способностей детей в ДОУ посредством специальных упражнений.

Ключевые слова: физические качества, координационные способности, метод, охрана здоровья, нравственное, эстетическое и физическое развитие.

Annotation. This article reveals the scientific features of the development of coordination abilities of children in preschool educational institutions through special exercises.

Keywords: physical qualities, coordination abilities, method, health protection, moral, aesthetic and physical development.

Dolzarlighi. Hozirda Respublikamizda jadal suratlarda har bir sohani rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor siyosiy darajaga chiqdi. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash va ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan pedagogik jarayonga e'tibor yanada ko'chaytirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini har tomonlama hayotiy va sog'lig'ini muhofaza qilish, hamda ta'lim-tarbiya sog'lomlashtirish jarayonining samarali tashkil etilishi muhimligini ta'kidlash joyizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ3305-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan



2-TOM, 7-SON

davlat talablari” 1-mh-son buyrug‘i va boshqa mazkur sohaga tegishli me’yoriy-huquqiyhujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotimuayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – Maktabgacha ta’lim muassasasidagi bolalarning koordinatsion qobiliyati rivojlanishida ortda qolgan bolalar uchun samarali vosita va usullarni ishlab chiqish.

Maktabgacha ta’lim yoshi – jismoniy sifatlarini rivojlantirish, koordinatsion qobiliyat va vositalarni o‘qitish uchun eng maqbul davr. Ushbu yoshda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng maqbul sharoitlar, shuningdek, muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish va yaxshilash uchun yaxshi sharoitlar mavjud. Maktabgacha yoshidagi bolalarning sog‘lomashtirish, vosita va koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish darajasi ularning asosiy jismoniy sifatini qanchalik rivojlantirishi bilan belgilanadi (tezkorlik, chaqqonlik, muvozanat va harakatlarni muvofiqlashtirish). Maktabgacha yoshdagi tarbiyachilarining vosita va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha umumiy vazifalar ularning rivojlanish jarayonini optimallashtirish va jismoniy tarbiya uchun maktabgacha ta’lim dasturining talablariga mos ravishda yaxshilashdan iborat. Maktabgacha yosh – bu bolaning asosiy jismoniy va psixologik sog‘lom hayot davri hisoblanadi. Eng muhim va ahamiyatli jihatlardan biri harakatlarni tartibga solishdir.

1-jadval

Pedagogik tadqiqot davrida tajriba guruh o‘g‘il va qiz bolalarida statik muvozanat saqlash qobiliyatini rivojlanish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

№	Nazorat mashqlari	Jinsi	Tajriba guruhi [n=20 o‘, 20 q]			
			Tajriba guruhi	Tadqiqot oxirida	t	P
			$\bar{x} \pm \sigma$	$\bar{x} \pm \sigma$		
1	Bir oyoqda statik muvozanat saqlab turish (M.E.Romberg testi) soniya	O‘	6,1±0,6	10,7±0,71	17,14	<0,05
		Q	6,6±0,8	11,4±0,71	15,54	<0,05
2	Ko‘zlarni yumgan holda	O‘	2,2±0,27	3,4±0,22	11,93	<0,05



2-TOM, 7-SON


	bir oyoqda statik muvozanat saqlab turish	Q	2,4±0,28	3,5±0,2	11,07	<0,05
3	Ikki oyoqda muvozanat saqlab turish (M.E.Romberg testi)	O'	68,2±6,49	88,4±4,65	8,76	<0,05
		Q	73,3±6,54	91,6±4,82	7,80	<0,05
4	Ko'zlarni yumgan holda ikki oyoqda muvozanat saqlab turish (M.E.Romberg testi)	O'	9,94±1,1	16,87±1,05	15,78	<0,05
		Q	10,42±1,05	17,16±1	16,10	<0,05
5	"Qaldirg'och" holatini ushlab turish	O'	2,28±0,28	3,56±0,19	13,10	<0,05
		Q	2,40±0,29	4,24±0,22	17,51	<0,05
6	Ko'zlarni yumgan holda "Qaldirg'och" holatini ushlab turish	O'	,29±0,16	12,56±0,16	19,44	<0,05
		Q	1,44±0,16	2,92±0,16	22,65	<0,05

Bir oyoqda statik muvozanat saqlab turish nazorat mashqini bajarishda (Romberg sinovi) tajriba guruh o'g'il bolalari 4,6 soniyani, qizlar esa 4,8 soniyaga natijalari yaxshilandi. Nazorat guruh o'g'il va qiz bolalarida ham tadqiqot davrida statik muvozanat saqlash qobiliyatining ko'rsatkichlari yaxshilandi, ammo barcha holatlarda nazorat guruhidagi bolalarda bir oyoqda statik muvozanat saqlab turish mashqini bajarishda berilgan holatni saqlash davomiyligi tajriba guruhidan ko'ra ahamiyatli darajada pastligi kuzatildi. Tajriba guruh o'g'il va qiz bolalarida bir oyoqda statik muvozanat saqlab turish ko'rsatkichlarining o'sishi nazorat guruh bolalarga ko'ra 3-4 barobar yuqori ekanligini



2-TOM, 7-SON

ko‘rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruh o‘rtasidagi farqlarining ishoniligi barcha holatlarda ahamiyatlidir ($p>0,05$)



1-rasm. Pedagogik tadqiqot boshi va yakunida tajriba guruh bolalarini SMS qobiliyatining rivojlanish darajasini ko‘rsatkichlari o‘zgarishi

Bu pedagogik tajriba natijalari bilan tasdiqlanadi va bu yerda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan uslubiyat va dastur bo‘yicha MYO bolalarda shug‘ullangan tajriba guruh o‘g‘il bolalarida statik va dinamik muvozanat saqlashning barcha turlarida yuqori darajaga olib kelgan statistik jihatdan ishonchli bo‘lgan va yorqin ifodalangan o‘zgarishlar bilan isbotlanadi.



2-TOM, 7-SON

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori.
5. Lyax V. I. Koordinatsionnye sposobnosti: diagnostika i razvitie. – M.: TVT Divizion, 2006. – 288 s.
6. Lyax V. I. Razvitie koordinatsionnykh sposobnostey u doshkol’nikov. izd., «Sport» - M.: 2016. – 96 s



2-TOM, 7-SON

TALABALARNI MUSTAQIL JISMONIY TARBIYA VA SPORT
TAYYORGARLIGIGA YO'NALTIRISH

Yunus Xojabaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga mustaqil jalb qilishning zamonaviy usullari ochib berilgan. Sport mashg'ulotlariga yo'naltirilgan talabalarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha turli xil ilmiy va uslubiy ma'lumotlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, sog'liq, jismoniy rivojlanish, vosita faoliyati.

Аннотация. Данном статьи раскрывается современные методы самостоятельного привлечения студенческой молодёжи к физическому воспитанию и спортивной подготовки. Рекомендуются различные научные и методические сведения по самостоятельному занятию студентов, ориентированную к спортивной подготовки.

Ключевые слова: общество, культура, физическая культура, спорт, здоровье, физическое развития, двигательная деятельность.

Annotation. This article reveals modern methods of self-involvement of student youth in physical education and sports training. Various scientific and methodological information on self-study of students, focused on sports training, is recommended.

Keywords: society, culture, physical culture, sport, health, physical development, motor activity.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va ularni sport tayyorgarligiga yo'naltirish uchun hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va ulkan g'amxo'rlik yaratilgan. Inson hayotining dastlabki ikki o'n yilligi, ularning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda



2-TOM, 7-SON

ular organizmining salomatligiga ham mustahkam asos qo'yiladi. Ammo bu paytda yoshlar bo'lajak kasb talabalarini bajarish uchun butun vaqtlarini bag'ishlaydi, o'qishga mukkasidan ketadi. Tabbiyki, bunday holatlar talabalarni kam harakatlilikka olib keladi. Uning natijasida talabaning yosh organizmida turli xil kasalliklarning dastlabki belgilari paydo bo'ladi, organizmni tashqi muhit ta'siriga qarshilik ko'rsatishi (immunitet) pasayadi, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi ortib boradi. Kasalliklardan xalos bo'lish muddati cho'zilib, uning asoratlari keyingi yillar davomida kuchayib boradi. Bu holat, ayniqsa, talaba qizlarda yanada og'irroq oqibatlariga olib kelishi mumkin. Qizlarning kelajakda turmush qurib, ona bo'lishi uchun monelik qiladigan, tug'ishni qiyinlashtiruvchi salbiy vaziyatlar ortib boradi. Bunday noxush holatlarni oldini olishda jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari eng ta'sirchan vosita hisoblanadi. Ular talabalar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning markaziy asab, nafas olish, yurak qon-tomir, ovqat hazm qilish, ichki sekresiya bezlari hamda harakat-tayanch tizimlari ish faoliyatini mislsiz darajada yaxshilanishiga olib keladi. Bunday mashq qilgan odam organizmi har qanday qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'ladi, muhim hayotiy maqsadlarni o'z oldiga qo'yish, ularni amalga oshirishga harakt qilishni ta'minlab, haqiqiy inson hayotini ma'no-maqсадini tushunishga olib keladi.

Insonni tabiat bilan uyg'un rivojlanishi, ya'ni doimiy jismoniy harakatda bo'lishi makon va zamonda ongli mavjudot sifatida mangulikning mohiyatiga yetishishiga olib keladi. Shunday ekan, biz bugun o'z sog'ligini mustahkamlash, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, jismoniy kamolotga yetishish maqsadida bizga umid bog'lab turgan talabalarimizga zarur bilimlarni bera olayapmizmi, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olayapmizmi, ularni jismoniy madaniyat va sport bilan mustaqil shug'ullanishga yo'naltira olayapmizmi,-degan savollar va ular bilan bog'liq muammolar oldimizda turadi.

“Jismoniy madaniyat”, “Sport”, “Sport tayyorgarligi” so'zlari bugungi kunda qisqa, lekin o'zining keng ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy-biologik, pedagogik, psixologik mohiyati bilan xalqimiz o'rtasida samarali foydalanib kelmoqda. Hozirda jismoniy madaniyat va sport nazariyasi va amaliyoti odam organizmini bir butun, o'z-o'zini rivojlantiradigan va



2-TOM, 7-SON

takomillashtiradigan biologik sistema sifatida, uni jismoniy va aqliy qobiliyatlarini saqlab qolish va rivojlantrishga yoʻnaltirilgan tadbirlarning zamonaviy mazmuni, shakli va vositalarini ishlab chiqish va foydalanishga qaratilishi kerak. Bu vazifalar uning taʼrifida yaqqol aks ettirilgan: jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi boʻlib, inson salomatligi va jismoniy kamolotining maxsus vositalarini yaratish va foydalanish ishida jamiyat erishgan muvaffaqiyatlarning yigʻindisidir.

“Jismoniy madaniyat”, “Sport”, “Sport tayyorgarligi” soʻzlari bugungi kunda qisqa, lekin oʻzining keng ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy-biologik, pedagogik, psixologik mohiyati bilan xalqimiz oʻrtasida samarali foydalanib kelmoqda. Hozirda jismoniy madaniyat va sport nazariyasi va amaliyoti odam organizmini bir butun, oʻz-oʻzini rivojlantiradigan va takomillashtiradigan biologik sistema sifatida, uni jismoniy va aqliy qobiliyatlarini saqlab qolish va rivojlantrishga yoʻnaltirilgan tadbirlarning zamonaviy mazmuni, shakli va vositalarini ishlab chiqish va foydalanishga qaratilishi kerak. Bu vazifalar uning taʼrifida yaqqol aks ettirilgan: jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi boʻlib, inson salomatligi va jismoniy kamolotining maxsus vositalarini yaratish va foydalanish ishida jamiyat erishgan muvaffaqiyatlarning yigʻindisidir.

Oʻtmishda ajdodlarimiz, hozir biz jismoniy madaniyat, sport degan nomlar bilan ataladigan faoliyat jarayonlarni badan tarbiya,- deb atagan va unga katta eʼtibor berishgan. “Harakatda barakat”, “Harakat-jon ozigʻi”, “Sogʻlom tanda- sogʻ aql” degan xalq maqollarining mazmunida, tana va ruhiyatni sogʻlomlashtirishga qaratilgan muhim vositalar aks ettirilgan. Bulardan xalqimiz oʻtmishining bebaho qadriyatlari sifatida foydalanish, ularni tiklash va yanada rivojlantirish hamda kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda ushbu maqola mazmunida keltirilgan maʼlumotlar katta yordam beradi degan umiddamiz.

Asosiy tushuncha va tamoyillar

Talabalarni jismoniy madaniyat bilan mustaqil shugʻullanish jarayoniga oid bilimlarni tahlil qilishga kirishar ekamiz, avvalo mashq qilgan va mashq qilmagan organizm



2-TOM, 7-SON

o'rtasidagi jismoniy va ruhiy-psixologik farqlarga oid jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini keltirishni lozim ko'rdik. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari asosan tibbiyotda ko'proq o'rganiladi. Shunga qaramasdan, bu ko'rsatkichlarni jismoniy madaniyat jarayonida o'rganish ham yosh mutaxassislarga katta bilim va tajriba beradi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga bo'y, vazn, ko'krak qafasining kengligi, o'pkaning tiriklik sig'imi (spirometriya), bel kuchi (stanometriya), qo'l kuchi (dinamometriya), shuningdek, yurakning minutlik urishi, minutlik nafas olibchiqarish kabi ko'rsatkichlarni ham kiritish mumkin. Chunki bular ham jismoniy rivojlanish va organizm mashq qilganlik darajasini baholashda zarur ko'rsatkich hisoblanadi.

Sport faoliyatida odamni bo'yi sport natijalarini tezroq o'sib borishida katta ahamiyat kasb etadi. Futbol, voleybol, basketbol, yengil atletika kabi sport turlarida bo'yning uzunligi, ya'ni 180-190 sm bo'lishi sport natijalarini o'sishida katta ahamiyatga ega. Ammo faqat bo'yning uzunligi bilangina katta natijalarga erishib bo'lmaydi. Bo'y qancha uzun bo'lsa, yaxshi natijaga erishish uchun shuncha ko'p mashq qilishni talab qiladi. Mashhur antropolog olim M. Bunak "bol'she razmer tela, trebuet bolshe uprajnenie" deb o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan.

Hozirda ayrim yoshlar bo'yining pastligidan nolib, xafa bo'lib yurishadi va bo'yini o'stirish uchun turli vositalardan foydalanishadi. Albatta, odamni bo'yi sabzavot emaski, qisqa vaqtda o'sib borsa. Bo'yning pastligiga turli xil sabablar bo'lishi mumkin. Masalan bolalikdagi og'ir kasalliklar, me'yorlanmagan og'ir mehnat, irsiyat, muntazam ochlik, vitaminlarning yetishmasligi, ichki sekresiya bezlari faoliyatining buzilishi va b.

Odam organizmining, shuningdek, bo'yning o'sishi bo'yicha adabiyotlarda turli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ba'zilar organizmning, shu jumladan bo'yning o'sishi 22 yoshga kelib to'xtaydi, deyishcha, ba'zilar bo'yni 25-27 yoshgacha o'sadi,- deb hisoblaydi.

Bo'y to'g'risida umum qabul qilingan me'yorlar ko'p. Lekin ular mintaqalar bo'yicha bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Masalan Yevropa ko'rsatkichlari Osiyoga, yoki aksincha.



2-TOM, 7-SON

Tibbiyotda erkaklar uchun o'rtacha bo'y 165 sm deb qabul qilingan bo'lsa, bu ayollar uchun 155 sm. Demak, undan ortig'i o'rtachadan yuqori yoki baland bo'y deb hisoblanadi. Pastini esa past bo'y deb qabul qilish mumkin.

Har qanday sharoitda ham gavdaning mutonasib bo'yi, uning mukammaligidan dalolat beradi. Bo'yni o'stirish uchun ko'pchilik yoshlar turnikda tortinish mashqidan keng foydalanadi.

Turnikda tortinish mashqi bo'yni o'stirish mumkin. Lekin ha deb bu mashqni takrorlaverish organizmni, ayniqsa kaft, bilak va yelka muskullarini zo'riqtirib qo'yishi mumkin. Shunday ekan, bu mashqni boshqa jismoniy mashqlar bilan birgalikda, masalan umumrivojlantiruvchi, yugurish, sakrash kabi yengil atletika, gimnastika mashqlari bilan navbatlashtirib bajarish tavsiya etiladi.

Gavda og'irligi, ya'ni vazn asosiy jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bugungi jamiyatimizdagi kam harakatlilik, ya'ni gipodinamiya nuqtainazaridan vaznni ortib ketishini nima deb tushuntirish mushkul. Uni ba'zilar kasallik sifatida qabul qilishsa, ba'zilar salomatlik belgisi sifatida ham qabul qiladi. Lekin haddan ziyod semirib ketgan ayollar, erkalarini bevosita o'z joniga jabr qiluvchilar deb tushunish to'g'riroq bo'ladi. Ortiqcha vazn natijasida organizmni zo'riqishini faqat mutaxassislar emas, balki oddiy odamlar ham tushunib yetadi. Ortiqcha vazn natijasida eng avval yurak-tomir va nafas olish tizimida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Haddan ziyod toliqishni his qilish, hansirab nafas olish bu o'zgarishlarning dastlabki belgilaridir. Vaznni nazorat qilish kerak. Vaznni nazorat qilish demak, salomatlikni nazorat qilishdir. Bo'y-vazn indeksi bo'yicha, masalan bo'y 170 sm bo'lsa, vazn 70 kg bo'lishi kerak. Agar bo'y 180 sm bo'lsa, vazn 80 kg bo'ladi va h.k. Shundan kami oriqlik, ziyoti semizlik hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarda yoshga oid farqlar mavjud. 50 yoshdan keyin bo'yvazn indeksi bo'yicha, vaznga 10 kg qo'shilib hisoblansa, bu me'yor deb qabul qilinadi.

Masalan, bo'yi 170 sm bo'lgan 50 yoshdan katta erkakning vazni 70 kg emas, balki 80 kg bo'lsa bu me'yor hisoblanadi.



2-TOM, 7-SON

Sportdagi vazn bilan bog'liq eng katta muammolardan biri bu mas'uliyatli musobaqalardan oldin vaznni tashlashdir. Umuman sportda vazn tashlashni, murabbiy va sportchining xato taktikasi deb tushunish kerak. Shoshilinch vazn tashlash natijasi g'alabaga emas, balki o'ta xunuk oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ko'krak qafasining kengligi ham jismoniy rivojlanishning zarur ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Ko'krak qafasining keng, tor va o'rtacha ko'rinishlari mavjud. Keng ko'krak qafasiga ega bo'lganlar geperasteniklar, tor ko'krak qafasiga ega bo'lganlar asteniklar va o'rtacha ko'krak qafasiga ega bo'lganlar normasteniklar deb ataladi.

Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish natijasida ko'krak qafasi kengayib boradi. Nafas olish chuqurlashadi, o'pkaga ko'proq havo olinadi. Bu o'z navbatida qonning kislorod bilan yaxshi ta'minlanishiga olib keladi. Jismoniy mashqlar bilan yetarli shug'ullanmagan odamlar minutiga 17-18 marta nafas olib chiqarsa, shug'ullanganlar, ya'ni sportchilar minutiga 11-12 marta nafas olib chiqaradilar. Shunga qaramasdan sportchilar o'pkasi organizmni kislorod bilan yaxshi ta'minlaydi. Bundan tashqari o'pkaning tiriklik sig'imi ham yuqori bo'ladi.

Yurakning minutlik qisqarib kengayishi, oddiy qilib aytganda yurak urishi jismoniy mashq qilganlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Voyaga yetgan, sport bilan shug'ullanmagan odamning yuragi minutiga 72 marta urishi, o'rtacha ko'rsatkich sifatida qabul qilingan. Bolalar va ayollarda yurak urishi, erkaklarga nisbatan tezroq bo'ladi. Bunda albatta yosh ko'rsatkichlari muhim hisoblanadi. Sport yoki boshqa bir jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish natijasida yurakning minutlik urishi kamayib boradi. Bu tibbiyotda "sport bradikardiyasi" deb ataladi. Masalan, 5000 va 10000 m ga yugurish bo'yicha olimpiada chempioni V.Kusning yuragi tinch holatda minutiga 32 marta urgan. Shu masofalar bo'yicha yana bir olimpiada chempioni, Finlandiyalik Pavvo Nurmining yuragi minutiga 28 marta urgan. Agar mashq natijasida sizning yuragingizni urishi tinch holatda, minutiga 60 marta ursa, bu sizning salomatlik ko'rsatkichingizni yaxshiligidan dalolat beradi. Shuningdek, mashq qilish natijasida yurak hajmi ham ortadi. Bu



2-TOM, 7-SON

ko'rsatkichlar sport amaliyotidagi yagona ko'rsatkichlar hisoblanadi, ya'ni shunga o'xshash boshqa ma'lumotlar qayd qilinmagan.

Musobaqalarda katta sport yuklamasini olish natijasida yurak urishining eng yuqori chegarasi 300 martaga yetgani to'g'risida ma'lumotlar bor.

Mashq qilish jarayonida sportchi organizmiga yuk berishning (nagruzka) eng yuqori, yuqori, o'rtacha, pastdarajalari farq qilinadi. Bular yurak urishida ham aks etadi. Masalan, eng yuqori darajadagi yuklama berilganda yurak urishi 220-240 tagacha yetadi. Yuqori darajadagi yuklamada 190-200 marta, o'rtachada 170 marta, past darajada 140-170 martagacha yetadi. Mutaxassislarning aytishicha, mashq natijasida yurak urishi 140 martagacha yetmasa, bunday mashqdan organizmga foyda yo'q.

Yuqorida keltirilgan jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni mashq qilish jarayonida o'rganib, ularga rioya qilish jismoniy madaniyat va sport bilan mustaqil shug'ullanishda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev.Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016-yil.
2. Davidenko D. N. Sosial'nie i biologicheskie osnovi fizicheskoy kul'turi: Uchebnoe posobie–SPb, 2001y.
3. Ionin L.G. Sosiologiya kul'turi. –M,: Nauka, 2000y.
4. Ilinich V. I. Fizicheskaya kul'tura studenta. –Moskva, Gardarika, 2001y



2-TOM, 7-SON

MALAKALI OG'IR ATLETIKACHILARNI DAST KO'TARISH TEXNIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MAXSUS YORDAMCHI MASHQLARDAGI
MASHG'ULOT YUKLAMALARINI REJALASHTIRISH USLUBIYATI

Yunus Xojabaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

Oralbaeva Iroda

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

***Annotatsiya.** Maqolada malakali og'ir atletikachilarning o'quvmashg'ulot jarayonida dast ko'tarish mashqini bajarish texnikasini takomillashtirish jarayonidatayyorgarlik va musobaqa oldi siklida maxsus-yordamchi mashqlari bo'yicha partial yuklama hajmini optimal taqsimlash yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Yuklama, ShKS, tayyorgarlik sikl, musobaqa oldi sikl, maxsus-yordamchi mashqlar, musobaqa mashqlari.*

***Аннотация.** В статье освещается оптимальное распределение объемов порционных нагрузок по специально-вспомогательным упражнениям в подготовительном и предсоревновательном циклах в процессе совершенствования техники выполнения упражнений по подъему рук в тренировочном процессе квалифицированных тяжелоатлетов.*

***Ключевые слова:** нагрузка, ШКС, подготовительный цикл, предсоревновательный цикл, специальные-вспомогательные упражнения, соревновательные упражнения.*

***Annotation.** The article describes the optimal distribution of the partial loading of special-auxiliary exercises in the process of improving the technique of lifting exercise during the training process of qualified weightlifter athletes.*

***Key words:** Load, Ships, Preparation Cycle, Competitive Cycle, Special Auxiliary Exercises, Contest Exercises.*

Dolzabligi. Dunyoda sport paydo bo'libdiki, u xalqlarni birbiriga yaqinlashtiruvchi qudratli kuch sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shu bois ham davlatlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni mustahkam poydevorini yaratish kabi sharaflil ishlarni tashkil etishda sportning o'rni beqiyosdir. Jismoniy tarbiya va sport insonning nafaqat jismoniy balki ma'naviy kamolotga erishishda muhim omillardan biriga



2-TOM, 7-SON

aylandi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va ijtimoiy sohaning eng muhim va asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev bu sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator me'yoriyhuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmoni, 2017-yil 9-martdagi "O'zbekiston Respublikasi sportchilarini 2020-yil Tokio shahri (Yaponiya)da bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etishiga tayyorlash to'g'risida"gi PQ-2821-sonli va joriy yilning 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarorlari qabul qilinishi jismoniy tarbiya va sport sohasining yanada jadal rivojlanishi turtki bo'ldi. Bundan tashqari o'zbek sportchilari xalqaro maydonlarda yurtimiz sha'nini munosib himoya qilib, davlatimiz nufuzini yanada oshirishdagi faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 12-oktyabrda "Sportchiva trenerlarni rag'batlantirish va ularning jismoniy tarbiya va sportdagi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3196-sonli Qarori qabul qilindi.

Respublikamizda bunday tarixiy hujjatlarning qabul qilinishi bejizga emas. Albatta, bu respublikamizda mavjud sport sohasidagi yetuk mutaxassis-olimlar tomonidan respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni ommaviyligini oshirish va professional sportni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Shuni aytib o'tish joizki, R.D.Xalmuxamedov, F.A.Kerimov, A.N.Abdiev, Z.G.Gapparov, Sh.X.Xankeldiev, I.A.Qoshbaxtiyev, T.S.Usmanxodjaev, R.M.Matkarimov va boshqa yetuk mutaxassis-olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida O'zbekiston sportchilari jahon sport maydonlarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishib, haqli ravishda tan olinib kelinmoqda. Shularqatorida, o'zbek sporti sharafini dunyoga yoyishda og'ir atletika bo'yicha mutaxassis olimlarning ham xizmatlari beqiyosdir.

Bilamizki, og'ir atletikada musobaqa qoidasiga muvofiq dast ko'tarish birinchi bajariladi va uning natijasi keyingi mashqdagi taktik harakatlarini belgilab beradi. Bu esa raqib ustudan g'alaba qozonishdagi taktik haraktlarining yengil yechimiga zamin yaratadi.

Xalqaro va respublika miqyosdagi musobaqalarda og'ir atletikachilarning dast va siltab ko'tarish mashqlarining natijasi bo'yicha pedagogik tahlili shuni ko'rsatdiki, dast va siltab ko'tarish mashqdagi kg oralig'idagi: yengil vazn toifalarida o'rtacha 30-35 kg. o'rta vazn toifalarida o'rtacha 40-45 kg -og'ir vazn toifalarida o'rtacha 50-55 kg.ni tashkil qilmoqda.



2-TOM, 7-SON

Albatta, bu ko'rsatkichlar og'ir atletikachilarni aynan bir mashqni dast yoki siltab ko'tarish mashqini yaxshi o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Bu esa ikki kurash natijalariga o'z salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda, ikki kurash natijalari oraliqidagi kilogrammni mutanosibligini ta'minlash maqsadida dast ko'tarish mashqini bajarish texnikasini tahlil qilish va uni natijasini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi uslubiyatni ishlab chiqishni talab etilmoqda. Shu sababli, malakali og'ir atletikachilarni tayyorlashda mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirish uchun dast ko'tarish mashqida shtangani ko'tarilish balandligini va tizza bo'g'imini yozilish burchagini oshirishga yo'naltirilgan maxsus-yordamchi mashqlardagi mashg'ulot yuklamalari ta'sirini o'rganish juda muhim hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Shtangani ko'tarilish balandligini oshirishga yo'naltirilgan maxsus-yordamchi mashqlardagi mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish asosida dast ko'tarish mashqini bajarish texnikasini takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Dast ko'tarish mashqini bajarish texnikasini takomillashtirishda turli shiddat zonalarida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning optimal uslubiyatini ishlab chiqish;
2. Malakali og'ir atletikachilarning mashg'ulot jarayonida dast ko'tarish texnikasini takomillashtirishga yuqori samara beruvchi maxsus-yordamchi mashqlarning yuklamalarini optimal rejalashtirishning yangicha taqsimlash usulining samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Malakali og'ir atletikachilarning mashg'ulot yuklamalarini va dast ko'tarish texnikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan partsial mashg'ulot yuklamalarini, uning shiddatini rejalashtirish xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tajriba guruhidagi malakali og'ir atletikachilar uchun asosiy mashqlar guruhlaridagi mashg'ulot yuklamalari xajmi berilgan (1-jadvalga qarang). Asosiy mashqlar guruhlaridagi mashg'ulot yuklamalari xajmi bo'yicha olingan ma'lumotlar musobaqadan oldin o'n ikki haftalik tayyorgarlik mazmunini ifodalaydi. Bu tayyorgarlik ikki siklga bo'lingan: sakkiz haftalik tayyorgarlik sikli (TTs) va to'rt haftalik musobaqa oldi sikli (MOTs).

Pedagogik tajribaning mashqlar guruhidagi mashg'ulot yuklamalari

1-jadvalda batafsil yoritib berilgan. Pedagogik tajribaning tayyorgarlik siklida tajriba guruhining barcha og'ir atletikachilari uchun birinchi 4 hafta davomida sakkizta asosiy mashqlar guruhida yuklamani 1436 marta shtangani ko'tarish sonida (ShKS) taqsimlash



2-TOM, 7-SON

rejalashtirilgan. Undan 1008 marta ShKSdan iborat mashg'ulot yuklamasini maxsus-yordamchi mashqlarda bajarish rejalashtirilgan. Ikkinchi 4 haftada 1326 marta ShKS, undan 898 ShKS maxsus-yordamchi mashqlarga ajratilgan. Musobaqa oldi siklida mashg'ulot dasturidan uchta maxsus-yordamchi mashqlar: tizza balandligi darajasidan dast ko'tarish, ko'krakka ko'tarish va ko'krakdan siltab ko'tarish mashqlarida mashg'ulot yuklamasi rejalashtirilmadi. Ularning yuklamasi musobaqa mashqlariga taqsimlandi. Musobaqa oldi siklida asosiy oltita mashq guruhida 1044 marta ShKS rejalashtirilgan bo'lib, undan 404 tasi ShKS maxsus-yordamchi mashqlarda rejalashtirildi.

Tajriba guruhi og'ir atletikachilarning mashg'ulot rejasini tayyorgarlik siklining 1-4 haftasida eng ko'p miqdorda ShKS: turgan joydan gimnastika otiga sakrab chiqish - 240 ± 9 marta bajariladi. Qolganlari quyidagicha taqsimlandi: o'tirib-turishlarda - 200 ± 15 marta, tortishlarda - 192 ± 6 marta, "XM-tren" trenajerda - 200 ± 8 marta, musobaqa dast ko'tarish - 128 ± 14 marta va dast ko'tarish mashqlarida - 176 ± 8 marta, musobaqa siltab ko'tarish - 116 ± 6 marta va siltab ko'tarish mashqlarida - 184 ± 12 marta. 5-8 haftada eng ko'p miqdorda ShKS: turgan joydan gimnastika otiga sakrab chiqish - 240 ± 12 marta, qolganlari quyidagicha taqsimlandi: tortishlarda - 192 ± 6 marta, "XM-tren" mashqini trenajerda bajarish - 176 ± 6 marta, o'tirib-turishlarda - 170 ± 12 marta, musobaqa dast ko'tarish - 152 ± 9 marta va dast ko'tarish mashqlarida - 120 ± 6 marta, musobaqa siltab ko'tarish - 148 ± 14 marta va siltab ko'tarish mashqlarida - 128 ± 11 marta takrorlash rejalashtirilgan.

Musobaqa odli siklida maxsus-yordamchi mashqlariga eng ko'p miqdorda ShKS: musobaqa dast ko'tarish - $320 \pm 11,0$ marta; musobaqa siltab ko'tarish - $320 \pm 8,0$ marta, qolganlari quyidagicha taqsimlandi: tortishlarda - $160 \pm 10,0$ marta, o'tirib-turishlarda - $160 \pm 10,0$ marta, turgan joydan gimnastika otiga sakrab chiqish - $60 \pm 7,0$ marta, "XM-tren" mashqini trenajerda bajarish - $54 \pm 4,0$ marta, takrorlash rejalashtirilgan.

Musobaqa mashqlarida eng katta hajmdagi mashg'ulot ishini 4-shiddat zonasida (81-90%) bajarish rejalashtirildi. Bu esa umumiy yuklama xajmiga nisbatan - 33,5%ni, maxsus-yordamchi mashqlarda (tortishlarva o'tirib turishlarda "XM-tren", yuqoriga sakrash) umumiy hajmga nisbatan - 57,6%ni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhiga nisbatan - 5,3%ga ko'proq.


Tayyorgarlik siklida yuklamalarning partsial xajmlari quyidagicha rejalashtirildi: musobaqa dast ko'tarish mashqining umumiy xajmiga nisbatan - 10,1%, ShKS 280 marta, tizzadan dast ko'tarish mashqi - 10,7%, ShKS 296 marta, siltab ko'tarish mashqlari - 20,8%, ShKS 576 marta, Tortishlar - 13,9%, ShKS 544 marta, o'tirib-turishlar - 13,3%, ShKS 370 marta, "XM-tren" - 13,6%, 376 marta, yuqoriga sakrashlar - 17,4%, 480 marta tashkil etdi.



2-TOM, 7-SON

Musobaqa oldi siklida yuklamalarning partsial hajmlari quyidagicha rejalashtirildi: musobaqa dast ko‘tarish umumiy xajmga nisbatan 29,8%, ShKS 320 marta; tortishlar - 14,9%, ShKS 160 marta, o‘tirib-turishlar - 14,9% ShKS 160 marta, “XM-tren” - 5,0%, 54 marta va turgan joydan yuqoriga sakrash – 5,6%, bu 60 martani tashkil qildi.

Yuklamalarning partsial hajmlarini rejalashtirishda biz adabiyotlardagi ma’lumotlarga, tajribali trenerlarning tavsiyalariga hamda shaxsiy amaliy tajribamizga tayandik, bir tomondan, musobaqamashqlari, ikkinchi tomondan, dast ko‘tarish mashqlari, uchinchi tomondan, maxsus-yordamchi mashqlardagi yuklamalarning umumiy xajmi umumiy shtanga ko‘tarishlar soniga nisbatan foizlarda keltirilgan (1-rasmga qarang)



1-rasm. Malakali og‘ir atletikachilarda turli xil tayyorgarlik sikllaridagi umumiy yuklama xajmining (ShKS %) nisbatlari

Tayyorgarlik siklida musobaqa mashqlarida - 19,7%ni, shundan dast ko‘tarishda - 10,1%ni va maxsus-yordamchi mashqlarda - 69,0%ni tashkil etdi. Bu esa aynan sakkiz haftalik tayyorgarlik siklida maxsus-yordamchi mashqlarga katta etibor berilganidan dalolatdir. Musobaqa oldi siklida maxsus-yordamchi mashqlardagi mashg‘ulot yuklamasi kamaytirilib, undagi yuklama musobaqa mashqlariga taqsimlandi. Demak, musobaqa mashqlariga -59,6%, shundan dast ko‘tarishga - 29,3% va maxsus-yordamchi mashqlarga - 40,4% ajratildi. O‘rganib chiqilgan adabiyotlardagi malakali og‘ir atletikachilar uchun tavsiya etiladigan nisbatga mos keladi.

Tadqiqotda taklif qilingan uslubiyat tekshiriluvchilarning sport natijalarini o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Barcha guruhlardagi tekshiriluvchilarda dast ko‘tarishdagi natijalarni oshirdilar (3-jadvalga qarang).

Dast ko‘tarish natijalarining o‘zgarishi (n=32)

Tadqiqot guruhlari	Dast ko‘tarish	Dastlabki ko‘rsatkichga



2-TOM, 7-SON

						nisbatan o'sish	
		Tadqiqot boshida x □ □	Tadqiqot oxirida x □ □	t	p	kg	%
Nazorat	A □	113,8±9,2	119,1±6,1	1,38	>0,1	5,4	4,7
	A □	114,6±8,6	120,6±6,9	1,53	>0,1	6,0	5,2
Tajriba	B □	113,5±10,8	125,2±9,4	2,32	<0,05	11,8	10,4
	B □	114,8±11,0	127,6±8,4	2,60	<0,05	12,8	11,1

Shunga e'tibor qaratish lozimki, sport natijalarining mutlaqo o'sishi tajriba guruhi sportchilarida ko'proq ahamiyatli bo'ldi, nisbiy o'sish nazorat guruhi sportchilarida kuzatildi. Buni shtanga ko'tarish balandligi, tizza bo'g'implari yozilish burchaklari, sakrovchanlik qobiliyati hamda qo'llarni bukuvchi mushaklar kuchi turli darajada oshganligi bilan tushuntirish mumkin. Tajriba guruhining B va B guruhlarida dast ko'tarishdagi natijalar ishonchli ($r < 0,05$).

Xulosa. O'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari qo'yidagi xulosalarni qayd etishda imkon beradi:

- pedagogik tajriba natijasida tajriba ishtirokchilarida dast ko'tarish musobaqa mashqining shtanga ko'tarishning maksimal balandligi va tizza bo'g'implari burchaklari ko'rsatkichlari bo'yicha biomexanikaviy tavsiflarining model ko'rsatkichlariga erishildi. Maksimal og'irlikda shtanga ko'tarish balandligi sportchining maksimal bo'yiga nisbatan texnik turdagi og'ir atletikachilarda o'rtacha $71,2 \pm 0,8\%$ ni, bunda tizza bo'g'implari burchaklari $168,8 \pm 4,1^\circ$ ni va kuch xususiyatidagisi $73,1 \pm 1,0\%$, $170,9 \pm 4,2^\circ$ ni tashkil etdi.

- malakali og'ir atletikachilarni dast ko'tarish mashqini bajarishtexnikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan maxsusyordamchi mashqlar, shuningdek, XM-tren trenerida mashq bajarish uchun portsiyal yuklamalarni optimal taqsimlanganligi xisobiga musobaqalarda dast ko'tarish mashqidagi yondovushlarni muvaffaqiyatli bajarish ishonchligini oshishiilmiiy asoslandi.

- malakali og'ir atletikachilarni dast ko'tarish mashqining natijasi oshirish og'ir atletikachilarini dast ko'tarish va siltab ko'tarish mashqlaridagi kilogramm oralig'ining mutanosibliigi taminlanadi, shuningdek, ikki kurash natijalarini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.



2-TOM, 7-SON

ADABIYOTLAR:

1. Bayazitov K.F. Povishenie sportivno-pedagogicheskogo masterstva v tyajeloy atletike. T, 2011.
2. Dvorkin L.S., Podgotovka yunogo tyajeloatleta. -M 2006.
3. Dvorkin L.S. ucheb, Tejelaya atletika, metodika podgotovki yunogo tyajeloatleta. 2-izd., M.«Yurayt»-2017 g.
4. Dvorkin L.S., Tyajelaya atletika Tom 1, Tom 2.; 2-izd., M.«Izdatel'stvo Yurayt»-2017 g.
5. Matkarimov R.M., Og'ir atletika nazariyasi va uslubiyati, T, 2015.
6. Matkarimov R.M., Kim D.F. Tyajelaya atletika: Programma i uchebnoe posobie dlya DYuSSh, SDYuShOR. – Tashkent: Lider-press, 2007.
7. Xlistov M.S. “Eksperimental'noe issledovanie vliyaniya trenirovochnyx nagruzok na texniku vypolneniya tyajeloatleticheskix uprajneniy” avtoreferat M.: 1976. 20 s.



UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Yunus Xojabaev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

Oralbaeva Iroda

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini bolalarni sog'lomlashtirishga yo'naltirish asosida tashkil qilish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sog'lomlashtirish, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, differensial yondashuv, yaxshi va tez o'zlashtiruvchi o'quvchilar, sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar.

Аннотация. В данной статье описаны методы организации физкультурной деятельности в дошкольном и начальном образовании на основе ориентации детей на оздоровление.

Ключевые слова: оздоровление, оздоровительное физическое воспитание, уровень физической подготовленности учащихся, дифференциальный подход, хорошие и быстрые ученики, медленные ученики.

Annotation. In this article enlightened the ways of directing to health and fitness of children in the activities of physical instruction and elementary education.

Key words: health and fitness, pupils' physical preparation levels, physical instruction which makes health and fitness, approaching differential, pupils who acquire well and fast, pupils who acquire slowly.

Ma'lumki, buyuk davlatni faqat so'g'lom millat so'g'lom avlodgina qura oladi. Bugungi kunda biz o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom bo'lib ulg'ayishida jiddiy o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz. Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash hamda o'qitish shart-sharoitlari ularning salomatligini shakllantirishda o'rni katta. Gigiyenik jihatdan to'laqonli yashash muhiti maktablarimizning obodligi hamda sanitar holati bilan



2-TOM, 7-SON

belgilanadi.

“Sog‘lik” tushunchasining 300 dan ortiq tavsifi mavjud. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ta‘rifiga ko‘ra “sog‘lik” bu fahatgina kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yo‘g‘ligi emas, balki to‘la jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy bekamu ko‘stlik holatidir.

Jismoniy salomatlik: organizmda o‘z-o‘zini boshqarishning mukammalligi, fiziologik jarayonlarning uyg‘unligi, atrof-muhitga maksimal darajadagi moslashuv; psixik salomatlik: yuksak ong, rivojlangan tafakkur, yaratuvchanlik faoliyatiga chorlovchi katta ichki va ma‘naviy kuch, umumiy ruhiy xotirjamlik maqomi, muvofiq ahloqiy reaksiyaga asoslangan psixik sohaning holati. ijtimoiy salomatlik: bu har bir kishi uchun jamiyatning, shuningdek, atrof-muhitning sog‘lomligi; ma‘naviy salomatlik – bu hayot faoliyatidagi motivatsion hamda ehtiyoj- axborot sohasi xususiyatlarining majmuasi bo‘lib, uning asosini jamiyatdagi shaxsning qadriyatlar, axloqiy yo‘nalish va motivlari tizimi belgilaydi.

Ma‘naviy salomatlik – qadriyat va etiqodlar tizimi. “Salomatlik” tushuncha-sini ta‘riflashda ham individual, ham ijtimoiy tavsiflardan foydalaniladi. Shaxsga nisbatan u organizmning tashqi muhit sharoitiga moslashishi sifatini aks ettiradi va inson hamda yashash joyi orasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonining yakuni bo‘lib maydonga chiqadi. Salomatlik tashqi (tabiiy va ijtimoiy) hamda ichki (irsiyat, jins, yosh) omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanadi.

Shaxsiy salomatlikning belgilari:

1. Zararlovchi omillar ta‘siriga maxsus va nomaxsus barqarorlik.
2. O‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari.
3. Organizm va shaxsning joriy funksional holati va imkoniyatlari.
4. Biror kasallik yoki rivojlanishdagi nuqsonning mavjudligi va darajasi.
5. Axloqiy-irodaviy va motivatsion qadriyatlarning yo‘nalishlari darajasi.

Shunga ko‘ra, shaxsning salomatligiga yaxlit nazar tashlasak, uni to‘rtta qismdan iborat model sifatida tasavvur etishimiz mumkin va unda shu tarkibiy qismlarning o‘zaro aloqadorligi ajratib ko‘rsatilgan hamda ularning ierarxiyasi taqdim etilgan.

Somatik tarkibiy qism – odam organizmidagi organlar va tizimlarning joriy holati – antogenetik rivojlanishning har xil bosqichlarida ustuvorlik kasb etuvchi asosiy ehtiyojlar vositasida namoyon bo‘ladigan individual rivojlanishning biologik dasturi uning poydevorini tashkil etadi.

Jismoniy tarkibiy qism – organizmdagi a‘zolar va tizimlarning o‘shishi hamda rivojlanish darajasi uning asosini moslashish reaksiyalarini ta‘minlovchi morfofiziologik va



2-TOM, 7-SON

funksional zahiralalar tashkil etadi.

Psixik tarkibiy qism – psixik sohaning holati – uning asosini muvofiq ahloqiy reaksiyani ta'minlovchi umumiy ruhiy xotirjamlik holati tashkil qiladi. Bunday holat ham biologik, ham ijtimoiy ehtiyojlar, shuningdek, ularni qondirish imkontiyatlari bilan taqozo etiladi.

Axloqiy tarkibiy qism – hayot faoliyatining motivatsion va ehtiyoj- axborot sohasi xususiyatlari majmuasi – uning asosini shaxsning jamiyatdagi axloqiy yo'nalishlari va motivlari, qadriyatlarini tizimi belgilaydi. Odamning ma'naviyati axloqiy salomatlik bilan bilvosita bog'liqdir, chunki u mehr-muruvvat, muhabbat va go'zallik singari umuminsoniy tushunchalar bilan aloqador.

Salomatlikning tarkibiy qismlarini bunday ajratish ma'lum darajada shartli, lekin u bir tomondan shaxs faoliyatining turlicha namoyon bo'lishi orasidagi munosabatlarning ko'p o'lchamliligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan inson hayot faoliyatining alohida yashash uslubini tashkil etishga yo'naltirilgan har xil tomonlarini yanada to'laroq tavsiflab berish uchun imkon yaratadi.

Inson salomatligi, birinchi navbatda hayot uslubiga bog'liq. Bu uslub har bir insonning faqat o'ziga xos, u quyidagilar bilan belgilanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- tarixiy omillar;
- milliy va diniy an'analar, e'tiqodlar;
- shaxsiy moyilliklar.

Sog'lom turmush tarzi insonning salomatlik uchun optimal bo'lgan sharoitlarda kasbiy, ijtimoiy, oilaviy hamda maishiy vazifalarini bajarishga yordam beradigan hamma narsani birlashtiradi va shaxsning individual hamda ijtimoiy salomatlikni saqlash va mustahkamlashga intilishlari yo'nalishini belgilaydi.

Sog'lom turmush tarzi – bu:

- qulay ijtimoiy muhit;
- psixik-axloqiy beka mu ko'stlik;
- optimal harakatlanish rejimi (harakatlanish madaniyati);
- organizmni chiniqtirish;
- to'g'ri ovqatlanish;
- shaxsiy orastalik (gigiyena);
- zararli odatlardan (chekish, alkogolli ichimlik, g'yohvand moddalar iste'mol qilish) voz kechish;



2-TOM, 7-SON

- ijobiy hissiyotlar.

Yuqorida keltirilgan tavsiflar shunday xulosa chiqarishga imkon beradi: shaxsning sog'lom turmush tarzini yuritish madaniyati insonning maxsus bilimlari, jismoniy madaniyati darajasi, tarbiyasi va o'z-o'zini tarbiyalashi, ma'lumoti, motivatsion – qadriyat yo'nalishlari, mustaqil bilim olishi natijasida o'zlashtirgan amaliy hayot faoliyatida, shuningdek, jismoniy hamda psixofiziologik salomatligida mujassam bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlari bilan belgilangan tizimli madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Salomatlikni mustahkamlash texnologiyalar – shaxsiy yo'naltirilgan yondashuv asosida amaliyotga tadbiiq etiladi. Shaxsiy rivojlantiruvchi vaziyatlar asosida amalga oshirilgan ekan, ular shunday hayot uchun muhim omillar sirasiga kiradiki, ular tufayli o'quvchilar birga yashash va samarali hamkorlik qilishga o'rganadilar. O'quvchining muloqot va faoliyat sohasini asta-sekin kengaytirib borish, o'z-o'zini boshqarishni (tashqi nazoratdan ichki o'z-o'zini nazorat qilishga) rivojlantirish, tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash, o'z salomatligi, boshqa kishilarning hayoti va salomatligi uchun javobgarligini shakllantirish asosida o'zlikni anglash va faol hayotiy nuqtai nazarni shakllantirish orqali egallanadigan salomatlikni ehtiyotlash tajribasini yuzaga keltirish, ijobiy munosabatlar madaniyatini egallashda o'quvchining faol ishtirok etishi ko'zda tutiladi.

Salomatlikni ehtiyotlash pedagogikasi ta'lim va tarbiya orasidagi munosabatlarni o'zgacha tartibga soladi, tarbiyani bolaning salomatligini saqlash va uni oshirishga yo'naltirilgan, insonni yuzaga keltiruvchi va hayotni ta'minlovchi jarayonlar doirasiga olib kiradi. Salomatlikni mustahkamlash pedagogik texnologiyalar bolaning axloqiy va estetik hissiyotlari, faoliyatidagi ehtiyojlari, kishilar, tabiat, san'at bilan muloqotning dastlabki tajribasini egallash kabi qobiliyatlari rivojini ta'minlashi kerak.

Salomatlikni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalari – o'quvchilarda salomatlik madaniyatini, uni saqlash va mustahkamlashga ko'maklashadigan shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga, salomatlikni qadriyat deb tushunish, sog'lom turmush tarzi yuritish ehtiyojini shakllantirishga yo'naltirilgan dastur va usullardir.

Salomatlikni mustahkamlash texnologiyasi – bu:

- bolaning maktabda bilim olish sharoitlari (stresslarning yo'qligi, talablarning, o'qitish va tarbiyalash usuliyatlarining muvofiqligi);
- ta'lim jarayonining oqilona (yosh, jinsga xos va alohida xususiyatlarga, gigienik talablarga mos tarzda) tashkil etilganligi;
- bolaning yosh xususiyatlariga ta'limiy va jismoniy yuklamalarning muvofiqligi;
- zarur va yetarli, shuningdek, to'g'ri tashkil etilgan harakat rejimi.



2-TOM, 7-SON

Salomatlikni mustahkamlash pedagogika bu ta'lim jarayonining barcha subyektlari (o'quvchilar, o'qituvchilar va h.k.) ma'naviy, hissiy, aqliy, shaxsiy va jismoniy salomatligini saqlash, mustahkamlash hamda rivojlantirish uchun maksimal imkoniyatlarni yaratib beruvchi tizim hisoblanadi. Bu tizimga quyidagilar kiradi:

- ta'lim texnologiyasini amalga oshirish jarayonida o'quvchilar salomatligi holatining tibbiyot xodimlari tomonidan olib boriladigan monitoringi hamda shaxsiy kuzatuvlar natijalaridan foydalanish, mavjud ma'lumotlar asosida unga o'zgarishlar kiritish;
- maktab o'quvchilarining yoshga ko'ra rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish va shu yosh guruhiga kiruvchi o'quvchilarning xotirasi, tafakkuri, ish qobiliyatlari, faolligi va boshqa xususiyatlariga muvofiq ta'lim strategiyasini ishlab chiqish;
- texnologiyani amalga oshirish jarayonida qulay hissiy-psixologik iqlim yaratish;
- o'quvchilarning salomatlik, ish qobiliyati zahiralari saqlash va kengaytirishga yo'naltirilgan salomatlikni mustahkamlash turli-tuman faoliyat turlaridan foydalanish.

Salomatlikni ehtiyotlash ta'lim jarayonining asosiy va yagona maqsadi sifatida emas, balki asosiy maqsadga erishish bilan bog'liq vazifalarning biri sifatidagina maydonga chiqishi mumkin.

“Salomatlikni jhtiyotlovchi” degan tushuncha amalga oshirilishi jarayonida o'quvchilar salomatligini saqlash vazifasi qanday hal etilayotganligini ko'rsatadigan har qanday ta'lim texnologiyasining sifatiga xos xususiyatlar sirasiga kiradi.

Sog'lomlashtirish pedagogikasi uchun eng muhim ustuvor jihatlar quyidagilardir:

1. Sog'lom bola – bolalarning rivojlanish jarayoni uchun amalda erishish mumkin bo'lgan me'yor.
2. Sog'lomlashtirish – davolash – profilaktika tadbirlarining yig'in-disi emas, bolalarning psixofiziologik imkoniyatlarini rivojlantirish shakli.
3. Individual tabaqalashtirilgan yondashuv – o'quvchilar bilan olib boriladigan sog'lomlashtiruvchi rivojlantiruvchi ishlarning asosiy vositasi.

Salomatlikni mustahkamlash ta'lim texnologiyalarining maqsadi o'quvchiga maktabda ta'lim olish davrida salomatligini saqlash uchun imkoniyat yaratish, unda sog'lom turmush tarzi bo'yicha zarur bilim,

malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, olgan bilimlarini kundalik turmushda qo'llashni o'rgatishdan iborat.

Mazkur maqsadning amalga oshirilishi ta'lim jarayonining quyidagi ustuvor jihatlariga bog'liq:

- davlat standarti talablariga muvofiq tarzda o'quv jarayonini oqilona tashkil etish;



2-TOM, 7-SON

- o‘quvchilarning harakat faolligini oqilona tashkil etish;
 - salomatlik va sog‘lom turmush tarzi kabi qadriyatlarni shakllantirish ishlari tizimi.
- Maktabni va har bir o‘qituvchini salomatlikni mustahkamlash texnologiyalarga tizimli ravishda jalb etish izchilligi:

1. O‘quvchilar salomatligiga maktabning salbiy ta’sir ko‘rsatishi muammosini anglash va buni zudlik bilan hal etish zarurati.
2. Maktab pedagoglarining o‘quvchilar salomatligidagi nuqsonlar uchun mas’uliyatini tan olishi.
3. Salomatlikni mustahkamlash zarur texnologiyalarni o‘zlashtirish (vakolatlarni egallash).
4. Olingan tayyorgarlikni amaliyotda, o‘zaro shifokorlar, o‘quvchilarning o‘zlari va ularning ota-onalari bilan mustahkam hamkorlikda qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori.
5. Lyax V. I. Koordinatsionnye sposobnosti: diagnostika i razvitie. – M.: TVT Divizion, 2006. – 288 s.



2-TOM, 7-SON

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA TA'LIMNING INTERFAOL
USULLARINI QO'LLASH

K.B.Erimbetov

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali direktori

B. Abatbaeva

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni malakasini oshirish jarayonida ta'limning interfaol usullarini qo'llash.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, o'qitish usuli, o'qish faoliyati usullari, individual psixologik hususiyati, muayyan nazariy bilimlar.

Аннотация: Применение интерактивных методов обучения в процессе повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту.

Ключевые слова: физическое воспитание, метод обучения, методы учебной деятельности, индивидуально-психологический характер, конкретные теоретические знания.

Annotation: The application of interactive methods of education in the process of improving the qualifications of specialists in Physical Education and sports.

Keywords: physical education, method of training, methods of reading activity, individual psychological peculiarities, certain theoretical knowledge.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 658-son Qaroriga asosan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni malakasini oshirish markazi faoliyati takomillashtirildi. Markazning asosiy vazifalari maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari jismoniy tarbiya o'qituvchilari (instruktorlari), kafedra mudirlari, ta'lim muassasalari va sport tashkilotlari trenerlari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni etib belgilandi.



2-TOM, 7-SON

Bugungi kunda sport pedagogikasi sohasiga kirib kelayotgan yangiliklar, pedagogik texnologiya va innovasiyalar zamonaviy yetuk kadrlarni pedagogik tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni malakasini oshirish jarayonida pedagog metod tanlashda:

Birinchi, o'qitish usuli, o'qish faoliyati usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lishga;

Ikkinchi, maqsadlarga erishishda pedagog va malaka oshiruvchi sport bo'yicha mutaxassis hamkorligi o'z aksini topishi shart ekanligiga;

Uchinchi, malaka oshiruvchilarning yosh, individual psixologik hususiyatiga;

To'rtinchi, mavzularning izchilligi va tizimlilikini xisobga olganlikka e'tibor beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o'z aksini topgan. Bular: "Akliy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Qarorlar shajarasi", "Zig-zag", "6x6x6", "Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim"... kabi metodlardir⁵³.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning malaka oshirishning ta'lim jarayonida bu metodlarni qo'llash:

- malaka oshiruvchilarning muayyan nazariy bilimlar puxta o'zlashtirishga;
- vaqtning tejalishiga;
- har bir jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassisining faollikka undalishiga;
- malaka oshiruvchi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassisning erkin fikrlash layoqatini shakllanishiga;

- malakasini oshiruvchi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassisda o'zgalarning fikrini tinglay olish ko'nikmasining hosil bo'lishiga;

- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassisning o'z fikrini himoya qila olishiga.

Noan'anaviy oq'itish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga qo'yidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin:

- noan'anaviy o'qitish eng sodda qulay usul;
- mustaqil fikrlashni o'rgatadi;
- ko'p tarmoqli;
- sodda va oson;
- bilim boyligini oshiradi;
- vaqtdan yo'tadi;
- qiziqarli o'tadi;
- darsning samaradorligini oshiradi;



2-TOM, 7-SON

- dunyoqarashni kengaytiradi;
- tafakkurni rivojlantiradi;
- malaka oshiruvchilarning diqqat e'tiborini tortadi;
- malaka oshirishga kelgan har bir jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassis bilan individual munosabatda bo'ladi;
- xotirani kuchaytiradi;
- izlanishga chorlaydi;
- malaka oshirishga kelgan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning malaka oshirishida ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llashda pedagog ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning ob'ekti va sub'ekti sifatida malaka oshirishga kelgan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassisga yo'naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimiz mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh.M.Mirziyoev. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
3. Neverkovich S.D. Pedagogika fizicheskoy kulturi sporta: uchebnik / S.D.
4. Neverkovich - M.: Fizicheskaya kultura, 2006.
5. Sidorov A. A. Pedagogika: Uchebnik dlya studentov, aspirantov, prepodavateley itrenerov po discipline «Fizicheskaya kultura» / Sidorov A.A., Proxorova M.V., Sinyuxin B.D. - SPb.: Terra-sport, 2000.



2-TOM, 7-SON

TALABALARGA GIMNASTIKA MASHQLARINI O'RGATISH
METODLARI

B. Abatbaeva

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
3-kurs talabasi*

Annotasiya. Gimnastika mashqlari aniqxarakatining mukammal ijrosini namoyish qilish, kino va foto materiallarni, rasmlar, jadvallar va namunaviy modellarni ko'rsatish, ayrim harakat topshiriqlari texnikasining detallarini og'zaki tasvirlab berish va boshqa harakatlarni bilan taqqoslash, shuningdek qo'shimcha vositalardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: detal, model, mashqlar, algoritmik, tip, harakat, faoliyati, takrorlash murakkab, o'rganish, algoritmik, shug'ullanuvchi, mashq, metod, saralab, sinov, xotira, jismoniy sifatlar, tarbiyalanadi.

Аннотация. Даны сведения о демонстрации безупречного выполнения точных движений гимнастических упражнений, показ кино-и фотоматериалов, рисунков, таблиц и образцов-моделей, словесное описание деталей техник отдельных двигательных заданий и сравнение их с другими движениями, а также использование дополнительных средств.

Ключевые слова: деталь, модель, упражнение, алгоритмическое, тип, действие, активность, повторение сложное, обучение, алгоритмическое, занятие, упражнение, метод, сортировка, тестирование, память, физические качества, воспитание.

Annotation. Information is provided about the demonstration of the perfect execution of the accuracy of gymnastic exercises, the display of film and photo materials, pictures, tables and model models, the verbal description of the details of the technique of certain movement tasks and comparison with other movements, as well as the use of additional tools.

Keywords: detail, model, exercises, algorithmic, type, movement, activity, repetition complex, learning, algorithmic, engaged, exercise, method, sorting, testing, memory, physical qualities, trained.

Gimnastika mashqlarini mashg'ulotda qo'llashda o'rgatish metodlari asosiy faoliyat qo'llanmasi hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar gimnastika mashqlarini bajarishga juda qiziqishadi. Chunki tananing shakli, tashqi ko'rinishidagi qomatni yaratishga e'tibor katta. Shuning uchun ularning talablariga asosan mashg'ulotlarni tashkil etish juda o'rinli,



2-TOM, 7-SON

xar bir shug'ullanuvchining e'tiborli ishtiroki uning uchun muvoffaqiyatlidir.

Gimnastika mashqlari shug'ullanuvchilarning jismoniy harakat va irodaviy hislatlariga katta talablar qo'yadi. Yangi mashqlarni o'zlashtirish jarayonidagi ongliklik va faollik tamoyili talabalardan, eng avvalo, harakatni tushunib o'rganishni, qo'yilgan vazifaga qiziqib va ijodiy yondashishni tarbiyalashni talab etadi. O'qish jarayonida harakat ko'nikmalarini ongli o'rganib olishlari uchun shug'ullanuvchilarga quyidagilarni o'rgatish lozim bo'ladi.

- o'z faoliyatining natijalarini baholash; turli (og'zaki, chizma, yozma holda takrorlash) usullardan foydalanib, harakat texnikasini tasvirlash;

- yangi harakatni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan turli qiyinchiliklarni yengish;

- kundaliklarini tutish va mashqlarni o'zlashtirish rejalarini tuzish;

Ko'rgazmalilik tamoyili.

O'rgatishda ko'rgazmali bo'lishiga erishish uchun murabbiy quyidagi bir qancha vosita va usullardan foydalanadi:

- harakatning mukammal ijrosini namoyish qilish, kino va fotomateriallarni, rasmlar, jadvallar va namunaviy modellarni ko'rsatish;

- ayrim harakat topshiriqlari texnikasining detallarini og'zaki tasvirlab berish va boshqa harakatlar bilan taqqoslash;

- qo'shimcha vositalar ishlatish (fazadagi namunalar, harakatlarga ovoz bilan jo'r bo'lib turish, sekin ko'tarib yuborish va q o'l tekkizib q o'yish);

- trenajyor qurilmalarda, odam gavdasi namunalarida va x.k.larda o'rganilayotgan mashq yoki uning elementlari texnikasini ko'rsatib berish;

- alohida xolatlarni to'xtatib ko'rsatish, taqlid qilish, murabbiy yordamida bajartirish va boshqa osonlashtirilgan harakatlar natijasida harakatni alohida, e'tibor bilan his etishni hosil qilish.

O'qituvchi talabalarning nimaga qodirligini, ularning aniq bir mashqlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini uzluksiz chuqur o'rganib borishi kerak. Masalan, yakkacho'pda katta aylanishni bajarish uchun talabada bir qancha boshqa mashqlarni bajara olishi, qo'lida yetarlicha kuch bo'lishi, dadillik va qat'iyatlilik singari ko'p jismoniy sifatlar qosil qilingan bo'lishi zarurligini bilishi lozim. Talabada shunday xislatlarning mavjudligi ana shu mashq uchun oson ekanligini ko'rsatadigan o'lchov bo'ladi.

Oson tushunarlik tamoyili didaktikaning ma'lumdan noma'lumga, osondan qiyinga, soddadan murakkabga qoidalari bilan chambarchas bog'liq.

Shug'ullanuvchilarda turli harakat vazifalarini hal qilish qobiliyatini



2-TOM, 7-SON

rivojlantirish uchun xarakat texnikasini muntazam ravishda takomillashtirib borish va yangi mashqlar o'rganishni; talabalarning mehnatsevarligi va faolligini so'ndirmaslik maqsadida o'rgatish jarayonida ish bilan dam olishni almashtirib turishni nazarda tutadi. O'rgatish usullari deganda, qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun kerakli muayyan yo'llar tanlashni tushunish kerak. Xilma-xil o'rgatish usullarini guruhlarga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh o'rgatish usullari: og'zaki usul universal usullardan biri bo'lib, talabalarga dars jarayonida yangi mashq bajarishni o'rgatishni idora qilish imkonini beradi. Bunda gimnastika atamalaridan foydalanish aloqida ahamiyatga ega bo'ladi, chunki atamalar yordamida o'qituvchining talabalarga nutq orqali ta'sir etishini aniq va qisqabo'lishiga erishish mumkin;

- harakat texnikasi to'g'risidagi ma'lumotni bildirish usulini, namoyish qiluvchi tomonidan mashqlarni bajarish, ko'rgazmali qurollar ko'rsatish, audio va videomateriallar, shartli belgilar berish, harakatning ayrim qismlari, miqdori talaba tomonidan harakat texnikasi elementlarini bajarish yo'li bilan namoyon qilinadi. Mazkur o'rgatish usullari, asosan, mashq texnikasi asoslari to'g'risidagi tasavurni qosil qilish va aniqlashga qaratilgan bo'lib, butun mashqulot jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'rgatish usullarining ikkinchi guruhi:

- yaxlit mashq usullari, u o'rganilayotgan harakatni bir butun tarzda bajarishni nazarda tutadi. Bunda mashqlarni bajarish sharoitini yengillashtirish, yordam ko'rsatish va straxovka qilishning qo'shimcha vositalarini qo'llash, jihozlar balandligini pasaytirish, harakatni trenajyorda bajarish, dastlabki yoki pirovard xolatni soddalashtirish (masalan, past yakkacho'pda gavdani yozib ko'tarishni murabbiy yordamida bajarish) hisobiga bo'lishi mumkin;

- yordamchi mashqlar uslubi (yaxlit mashq usulining o'xshash turlaridan biri), u tarkib jihatidan asosiy mashqqa o'xshash. Lekin ayni vaqtda mustaqil mashq bo'lib, ilgari o'rganilgan harakatni yaxlit bajarishni nazarda tutadi (masalan, yakkacho'pda gavdani yozib ko'tarish uchun bir oyoqda ko'tarilib, tayanish yordamchi mashq bo'lib xizmat qiladi);

- bo'lingan mashq usuli bu butun harakat texnikasini ayrim qism va bo'laklarga ajratib olish hamda ularning har birini o'zlashtirib olgandan keyin uni qayta yaxlit bajarishdan iboratdir. Mashqni bo'laklarga bunday sun'iy bo'lish asosiy faoliyatni o'rganish sharoitini osonlashtirish maqsadida qilinadi;

- xususiy harakat vazifalarini hal qilish usuli bo'lingan mashq usulining varianti bo'lib, harakat texnikasining muayyan elementlari bo'lgan o'quv vazifalarini tanlash



2-TOM, 7-SON

bilan ifodalanadi (masalan, shug'ullanishni endi boshlovchi sportchilar oyoqni kerib, tayanib sakrashni o'rganib olish uchun yerga qo'nishni, yugurib kelishni, depsinish va so'ng «ko'prik» tushishni birin-ketin o'rganishadi). Mazkur o'rgatish usullari talabalarga mashq aqida axborot olish va o'rganilayotgan harakat texnikasi asoslarini bilib olish imkonini beradi. B undan tashqari, ular harakat tarkibi to'g'risidagi tasavur paydo bo'lishiga, shuningdek, ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolarni tuzatishga yordam beradi.

- Uchinchi guruh: standart mashq usuli, bu usul mashg'ulot. Harakat ko'nikm asini mustaqamlash maqsadida harakatni mustaqil bajarish bilan ifodalanadi;

- o'zgaruvchan mashq usuli quyidagi qiyinlashtirilgan sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi: adashtiruvchi signallar (shovqin, begona tovushlar va q.k.lar), atrofdagi sharoitning o'zgarishi (jixozlam ing odatdagidan boshqacha qo'yilishi, yoritishni o'zgartirish va q.k.lar),

- ma'lum topshiriqni bajarish qaqida kutilmagan ko'rsatma berilishi, mashqni charchagan yoki ortiqcha hayajonlanib bajarish;

- o'rgatishning o'yin va musobaqa usuli talabalarning o'zaro raqobat qilishini yoki harakatdan muayyan natijaga erishish uchun mas'uliyat sezishni nazarda tutadi. Mazkur o'rgatish usullari harakat ko'nikmalari barqarorligiga erishish imkoniyatini beradi.

- To'rtinchi guruhi yangi harakatni o'rgatishning to'g'ri taktikasini va o'quv jarayonini tashkil qilishning samarali shaklini tanlab olish im koniyatini berdigan dasturlash usullaridan iboratdir. Mashqni o'rgatish jarayonini algoritm lash dasturlashtirishning ilqor turlaridan biridir. Algoritmik turdagi topshiriqlar o'quv materialini qismlarga bo'lishni va ana shu qism vazifalarni shug'ullanuvchilarga qat'iy aniq tartibda birin-ketin o'rgatishni nazarda tutadi. O'quv vazifalarining birinchi qismi o'rganib bo'lingandan keyingina ikkinchi qismiga o'tish huquqini beradi. Topshiriqlarni tuzishga quyidagi talablar qo'yiladi:

- topshiriqlar yoki o'quv materialining qismlari har bir faoliyat ifodasini aniq ko'rsatishi, ularni tanlashda tasodifga yo'l qo'ymasligi va u kimlarga mo'ljallangan bo'lsa, shularga tushunarli bo'lishi kerak;

- algoritmik tipdagi topshiriqlar bir harakat faoliyati uchun ham, tarkib jihatidan o'xshash harakatlarni takrorlash uchun ham tuzilishi mumkin;

- o'quv vazifalarining hammasi bir-biri bilan bog'liq hamda murakkablashib borishi jihatidan izchil bo'lishi kerak. Topshiriqqa binoan, o'quv materialini qismlarini o'rganish tartibi ular orasidagi aloqadorlikka qarab belgilanadi. Algoritmik turdagi topshiriqning harbir vazifalarini takrorlanishi muayyan maqsadni hal qilishga qaratilgan bo'ladi.



2-TOM, 7-SON

• Hozirda gimnastika sport turiga qiziqish yuqori bo'lishi bilan shug'ullanuvchilarning soni o'tgan yillarga qaraganda yuqori darajaga ko'tarildi chunki. Bu sport turi xotin-qizlarni yaxshi ko'rib shug'ullanadigan sport turidir. Taraqqiy etayotgan organizmni go'zal shakllanishiga gimnastik mashqlar birinchi jismoniy vosita xisoblanadi. Yuqoridagi misollar asosida shug'ullanuvchilarni aniq mashqlarni o'zlashtirib olishlari uchun qulay bo'lgan metodlar saralab olindi va bu sinovdan o'tkazildi. Mashqlarni bo'lib bo'lib bajarish birinchidan, shug'ullanuvchilarni xotirasini mustaxkamlash va u mashqni maromiga yetkazib bajaradi va unga shodlik baxsh etadi. Har bir gimnastik harakatlar insonni salomatligini mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Винер-Усманова И.А. Интегральная подготовка в художественной гимнастике. Автореф. дисс д-ра пед. наук. Санкт-Петербург, 2013. -47 с.
2. Винер-Усманова И.А. Художественная гимнастика: история, остояние и перспективы развития: учеб. пособие для образовательной программы по направлению 49.04.01 - "физ. культура"/авт. И. А. Винер-Усманова [и др.]; Национальный гос. ун-т физ. культуры, спорта и здоровья им. П. Ф. Лесгафта.-М. : Человек,2014.-200 с.
3. Eshtayev A.K. Karabaeva D.S. Xasanova N. R. Badiiy gimnastikada buyumsiz bajariladigan mashqlarni o'rgatish uslubi. O'quv qo'llanma. "Fan vatexnologiyaniashiriyoti" T.: 2013 -252 b.
4. Рахматова Д.А.Хореография, как средство повышения специально-двигательной подготовленности гимнасток-художниц. Дисс. на соискание степени магистра педагогики. 2014. -163 с.



2-ТОМ, 7-СОН

**ФУНКЦИИ И МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ
ПРОЦЕССОВ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ
ПОМОЩИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НЕ
МЕДИЦИНСКОГО ПРОФИЛЯ**

Умида Бахрамовна ПАЛВАНОВА

Ассистент кафедры Онкологии и медицинской радиологии Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии, Ургенч, Узбекистан.

Научный руководитель: д.п.н., профессор С.Т. Тургунов

Цель работы: Исследование функций и методов организации и управления процессами формирования навыков оказания первой помощи у студентов высших учебных заведений не медицинского профиля с целью оптимизации образовательного процесса и повышения эффективности подготовки к действиям в экстренных ситуациях, способствующих сохранению жизни и здоровья.

Материал и методы исследования: Анализ последствий производственных аварий и катастроф различного рода показывает, что одной из основных причин отрицательного воздействия поражающих факторов является человек: работники не обладают способностью применять в этих ситуациях полученные в вузе знания, умения и навыки в области защиты от опасных (чрезвычайных) ситуаций. Другими словами, у них не развито восприятие, понимание и преобразование конкретной ситуации в системе «человек - опасность» при выполнении своей профессиональной деятельности. Соответственно, готовность к работе во внезапно изменившихся условиях, при развитии экстремальных ситуаций (пожар, взрыв, землетрясение, наводнение и др.), способность принимать и применять грамотные решения, стали все более востребованными качествами выпускника вуза. При организации учебно-воспитательного процесса главной целью является возможность дать учащимся необходимые теоретические знания и практические навыки по предмету. Под навыком понимается действие, в составе которого отдельные операции стали автоматизированными в результате упражнения. То, что данное действие стало навыком, означает, что индивид в результате упражнения приобрел возможность осуществлять данную операцию, не делая ее выполнение своей сознательной целью. Когда в процессе обучения у ученика формируется способность совершать какое-то действие, то сначала он выполняет это действие развернуто, фиксируя в сознании каждый шаг. Способность выполнять действие формируется сначала как умение. По мере выполняемых тренировок и этого действия умение совершенствуется,



2-TOM, 7-SON

промежуточные шаги этого процесса перестают осознаваться, действие выполняется полностью автоматизировано у человека образуется навык в выполнении этого действия, т.е. умение переходит в навык.

Результаты исследования: Главной целью организации учебно-воспитательного процесса становится формирование у студентов не только теоретических знаний, но и практических навыков, которые становятся автоматизированными в результате упражнений.

Выводы: Оказание первой помощи играет важную роль не только в спасении жизней, но и в формировании ответственности и гражданской активности в обществе. Формирование навыков оказания первой помощи среди студентов высших учебных заведений не медицинского профиля является важным аспектом общественного здравоохранения и гражданской безопасности.

1. Ф.И.О. (полностью)	Палванова Умида Бахрамовна
2. Номер секции участника	1
3. Серия, номер паспорта	АА 9292325
4. Статус (студенты, резиденты магистратуры, клинические ординаторы, диссертанты)	Диссертант
5. Полное название ВУЗа с указанием электронной почты	Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии http://www.urgiltma.uz/
6. Название работы	Функции и методы организации и управления процессов формирования навыков оказания первой помощи у студентов высших учебных заведений не медицинского профиля
7. Указать участие o Онлайн o Офлайн	Онлайн



2-TOM, 7-SON

<p>8. Форма участия конференции (необходимо указать) <input type="checkbox"/> публикация тезиса + доклад <input type="checkbox"/> только публикация тезиса</p>	<p>только публикация тезиса</p>
<p>9. Ф.И.О. научного руководителя (полностью) с указанием должности, ученой степени, звания;</p>	<p>Тургунов Собитхон Ташпулатович директор НамДУ, д.п.н.профессор</p>
<p>10. Почтовый адрес, телефон, E-mail автора, с которым будет вестись переписка</p>	<p>umida.bahramovna93@gmail.com</p>



2-TOM, 7-SON

**Hududlarda yoshlar turizmi segmentini samarali rivojlantirishning tashkiliy-
iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish usullari**

Allayor Norboyev Ismoilovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

***Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистонда туризмни ҳар томонлама ривожлантириши ва қўллаб-қувватлаш мақсадида амалга оширилаётган ишлар, юртимиз туризмида мавжуд муаммолар ва улурни самарали ҳал қилиши учун мавжуд имкониятлар тўғрисида фикр юритилган. Ёшларнинг соғлом турмуш тарзини олиб бориши учун уларни ички ва ташқи туризмга жалб қилишининг зарурати ҳамда ёшлар туризмнинг ҳолати ва тараққиётига эътибор қаратилди.*

***Калит сўзлар.** Туризм, иқтисодиёт, ёшлар туризми, сайёҳлар, кемпинг, меҳмонхоналар, умуммиллий қадриятлар, чора-тадбирлар.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается проводимая в Узбекистане работа по всестороннему развитию и поддержке туризма, существующие проблемы в туризме нашей страны и возможности их эффективного решения. Обращено внимание на необходимость привлечения молодежи к внутреннему и внешнему туризму с целью ведения здорового образа жизни, а также состояние и развитие молодежного туризма.*

***Ключевые слова.** Туризм, экономика, молодежный туризм, туристы, кемпинг, гостиницы, национальные ценности, мероприятия.*

***Annotation.** This article discusses the ongoing work in Uzbekistan on the comprehensive development and support of tourism, the existing problems in the tourism of our country and the possibility of their effective solution. Attention is drawn to the need to attract young people to internal and external tourism in order to maintain a healthy lifestyle, as well as the state and development of youth tourism.*

***Keywords.** Tourism, economy, youth tourism, tourists, camping, hotels, national values, events.*

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, insoniyat tarixidagi eng katta yoshlar qatlamini hisobga olgan holda, 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi jahon hamjamiyati tomonidan esda qoldi. U nutqida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, deb ta’kidlagan



2-TOM, 7-SON

edi. Shuningdek, davlatimiz rahbari Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifini ilgari surdi va bu taklif xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq kutib olindi. O'zbekiston rahbari, yoshlarning soni ikki milliarddan oshgani va xalqaro terrorizm va ekstremizmning o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini asoslab bergan edi.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida imzolagan birinchi qonun hujjati – 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun, ramziy ahamiyatga ega. Aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, islohotlarga befarq bo'lmagan, mamlakatning ertangi kelajagi uchun mas'uliyatli, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar va sadoqatli shaxslar sifatida tarbiyalash mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Davlatimiz rahbari va hukumati, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishida salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash muhim omil ekanligini yaxshi anglaydi.

Shu bois, tadqiqot davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida turistik tadbirlar bilan bog'liq barcha (transport, mehmonxona, ovqatlanish va b.) joylarida qarovsiz va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatish, nogiron va imkoniyati cheklangan fuqarolarga ko'maklashishga qaratilgan “Ijtimoiy volontyorlik guruh”larini shakllantirish va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish bo'yicha takliflar asoslandi.

Turizmning yoshlar segmenti aholining muhim demografik guruhini tashkil etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda jahon aholisi taxminan 8 milliard kishini tashkil etadi, shundan 1,8 milliard 15 dan 29 yoshgacha bo'lgan shaxslardir, bu umumiy aholining 25 % ini tashkil etadi. BMT dunyoni rivojlangan hududlarga (Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya) va kam rivojlangan hududlarga (Afrika, Yaponiyadan tashqari Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Melaneziya, Polineziya va Mikroneziya) bo'linadi. Rivojlangan hududlarda 233 million yoshlar, rivojlanmagan hududlarda esa 1,57 milliard yoshlar yashaydi.

Xalqaro turizm sektori uchun yoshlarning potensial maqsadli auditoriyasi 1,8 milliard kishini tashkil etadi, bu jahon aholisining bir choragini tashkil etadi. Yoshlar doimo xalqaro kirishlarning taxminan 20 % ini tashkil etadi. Jumladan, 2023-yilda yoshlar umumiy soni 1087 million kirishlardan 217 million xalqaro kirishlarni amalga oshirgan. 1991-yildan beri vaziyat o'zgarmagan, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, har beshinchi xalqaro kirish yoshlar segmentiga to'g'ri



2-TOM, 7-SON

kelgan. Shunday qilib, yoshlarning xalqaro turizmdagi ulushi ikki o'n yillik davomida o'zgarishdan qolgan (1991-yilgi Dehli konferensiyasidan boshlab).

O'tgan yillar davomida yoshlar segmentining xalqaro kirishlari umumiy xalqaro kirishlar soni bilan bir xilda o'sgan. 2023-yilda yoshlar 2022-yilga nisbatan 30 millionga ko'proq xalqaro kirishlarni amalga oshirgan (187 million kirishlar). Shu davr ichida umumiy xalqaro kirishlar soni 2022-yildagi 948 milliondan 2023-yilda 1087 millionga ko'paygan. 2022-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda yoshlarning kirishlari 16 % ga, umumiy xalqaro kirishlar soni esa 15 % ga o'sgan. Shunday qilib, yoshlar segmentining xalqaro kirishlari o'sishi umumjahon trendiga mos keladi.

Yoshlar segmenti, ya'ni 15 dan 29 yoshgacha bo'lgan shaxslar, yaqin kelajakda nomaqbul demografik o'zgarishlar bilan to'qnash kelishi mumkin. 2023-yilda bu segment jahon aholisining aniq bir choragini tashkil etgan, ammo kelajakda uning ulushi asta-sekin kamayib boradi. BMT ma'lumotlariga ko'ra (o'rtacha prognozga ko'ra), jahondagi yoshlar soni o'zgarishi mumkin, lekin umuman olganda 2030-yilga kelib 1,9 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Biroq, jahon aholisining umumiy soni yoshlar sonidan tezroq o'sishi kutilmoqda va 2030-yilga kelib 8,4 milliard kishini tashkil etadi. Shunday qilib, jahon aholisi orasida yoshlar ulushi 2030-yilga kelib 22 % ga tushib ketadi. Jahon aholisining umumiy soni tez o'sishi natijasida (global aholining qarishi) yoshlarning ulushi kamayib boradi.

Kelajakda yoshlar segmentiga kiruvchi odamlar soni umuman oshadigan bo'lsa-da, bu ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlardagi yoshlar sonining ko'payishi hisobiga sodir bo'ladi. 2020-yilda rivojlangan hududlarda 233 million yoshlar yashagan bo'lsa, rivojlanmayotgan hududlarda ularning soni 1,57 milliardni tashkil etgan. Shu tariqa, rivojlangan hududlardagi yoshlar umumiy jahon yoshlari sonining 14 %ini, rivojlanmayotgan hududlardagi yoshlar esa 86 %ini tashkil etgan. 2030-yilga kelib, prognozlarga ko'ra, rivojlangan hududlardagi yoshlar soni 219 millionga kamayadi, biroq rivojlanmayotgan hududlardagi yoshlar soni 1,649 milliardga oshadi. Demak, rivojlangan hududlardagi yoshlar ulushi 12 %ga, rivojlanmayotgan hududlardagi yoshlar ulushi esa 88 %ga oshadi. Afrikada yoshlar sonining alohida yuqori o'sishi kutilmoqda, boshqa tomondan Avstraliya va Okeaniyada bu o'sish past bo'lishi ko'zda tutilgan. Boshqa qit'alarda yoshlar soni biroz kamayishi kutilmoqda.

Kelgusi yillarda yoshlar sonining o'zgarishi unchalik qulay bo'lmasa-da, yoshlar turizmi o'sishining davom etishi kutilmoqda. Hozirgi vaqtda xalqaro kirishlar yoshlar segmentida jahon miqyosidagi umumiy kirishlarning o'sish tempi bilan deyarli bir xilda ortmoqda, ammo kelajakda yoshlar segmentidagi xalqaro kirishlarning ancha jadal o'sishi



2-TOM, 7-SON

kutilmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO)ning baholariga ko'ra, 2025-yilga kelib yoshlar segmentidagi xalqaro kirishlar soni 300 millionga yetib, 2023-yilga nisbatan 83 millionga ko'payishi kutilmoqda. Shu davrda umumiy xalqaro kirishlar soni 313 millionga ortib,

2023-yilgi 1087 milliondan 2025-yilda 1400 millionga yetishi kutilmoqda. Shu tariqa, 2025-yilga kelib yoshlar segmentidagi xalqaro kirishlar ulushi 21,4 %ga, 2013-yilgi 20 %ga nisbatan 1,4 % ko'payishi kutilmoqda.

Kutilayotgan yoshlar turizmi o'sishi, o'rta sinf vakillari sonining ko'payishiga yordam beradi. Hozirgi vaqtda dunyoda taxminan ikki milliard kishi o'rta sinfga mansub, ammo 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,2 milliardga, 2030-yilga kelib esa 4,9 milliardga yetishi mumkin. O'rta sinf asosan Osiyoda, Lotin Amerikasida va Yaqin Sharqda o'sadi. 2030-yilga kelib, Osiyodagi o'rta sinf jahon o'rta sinfining uchdan ikki qismini tashkil etadi, eng katta o'sish Xitoyda bo'ladi, u yerda 2030-yilga kelib o'rta sinfga mansub bir milliard kishi bo'ladi, bu jahon o'rta sinfining 20 %ini tashkil etadi. Shuningdek, rivojlanayotgan hududlardagi aholi daromadi ortishi bilan yoshlar turizmi ham o'sishda davom etadi. Yoshlar turizmini rivojlantirishga yordam beradigan boshqa omillar orasida transport narxlarining arzonlashishi va sayyohlik uchun siyosiy va madaniy to'siqlarning pasayishi sanaladi. Shunday qilib, yoshlar turizmi jahon bo'ylab aholi daromadlarining oshishi tufayli rivojlanishda davom etadi, ammo ehtimol yoshlar turizmi manbalari bozori o'zgaradi, rivojlanayotgan mamlakatlardan keladigan yosh sayyohlar soni rivojlangan mamlakatlardagi yoshlar sonidan ko'payishi kutilmoqda.

Hozirda yoshlar segmenti xalqaro turizmga katta iqtisodiy hissa qo'shib, kelajakda o'sish uchun katta potensialga ega. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO)ning baholariga ko'ra, 2023-yilda yoshlar segmenti 207 million kirishlarni amalga oshirib, xalqaro turizmdan 182 milliard dollar daromad olgan. UNWTO prognozlariga ko'ra, 2025-yilga kelib bu segment 300 million kirishlarni amalga oshirib, 320 milliard dollar daromad keltirishi mumkin. Agar prognozlar amalga ohsa, 2022-yildan 2025-yilgacha yoshlarning xalqaro kirishlari 45 % ga, xalqaro turizm daromadlari esa 76 % ga oshadi.



2-ТОМ, 7-СОН

УДК 616.379-008.64:616.33-089.87:612.017.11

МЕТОДЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ АНАСТОМОЗИТОВ
ПОСЛЕ ОПЕРАЦИЙ МИНИГАСТРОШУНТИРОВАНИЯ

Исомутдинов Аъзам Зокирович

Бухарский Государственный медицинский институт

azamzokirovic@gmail.com

АННОТАЦИЯ

